

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus
ta’lim vazirligi**

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

“Neft va gaz ishi” kafedrasи

“Neft va gaz quduqlarini burg‘ulash” fanidan

**AMALIY MASHG‘ULOT BO‘YICHA
USLUBIY KO‘RSATMA**



Qarshi -2022

Ushbu uslubiy ko'rsatma "Neft va gaz ishi" kafedrasining 15.10.2022-yil №5 bayonida "Neft va gaz fakulteti" uslubiy komissiyasi yig'ilishining 19.10.2022-yil №3 bayonida ko'rib chiqilgan. QarMII Uslubiy Kengashining 22.10.2022-yil №3 bayonida tasdiqlangan va chop etishga ruxsat berilgan.

Uslubiy ko'rsatma 5311900 - "Neft va gaz ishi (faoliyat turlari bo'yicha)" bakalavr ta'lim yo'nalishi talabalari uchun amaliy mashg'ulotlarni olib borish uchun mo'ljallangan.



Tuzuvchi:

assistant A.I. Tog'ayev

Taqrizchilar:

"Texnologik mashinalar va jihozlar kafedrasi dots. E.S.Mirzayev

"O'zgeoburg'ineftgaz" AK "Yangi texnologiyalarni tadbiq etish bo'limining" texnologik muhandisi L.O. Abdullayev

“Neft va gaz quduqlarini burg‘ulash” fanidan amaliy mashg‘ulotlarning texnologik xaritasi.


№	Mashg‘ulotning soni	Amaliy mashg‘ulot mavzulari	Mashg‘ulot soati
1	1-amaliy mashg‘ulot	Sharoshkali va parrakli burg‘ilar, burg‘i kallagi va kalonnali burg‘ilar, olmosli va maxsus mo‘ljallangan burg‘ilarning tuzilishini o‘rganish.	2
2	2-amaliy mashg‘ulot	Dolotolarning ish ko‘rsatkichlarini qiyosiy taqqoslashni o‘rganish. Dolotoning o‘q bo‘yicha yuklanishini aniqlash usullari.	2
3	3-amaliy mashg‘ulot	Gidravlik yuk indikatori (GIV) ning ish prinsipini o‘rganish.	2
4	4-amaliy mashg‘ulot	Burg‘ilash quvurlar birikmasi va og‘irlashtirilgan burg‘ilash quvurlarining turlari va o‘lchamlarini tanlashni o‘rganish.	2
5	5-6-amaliy mashg‘ulot	Rotorli va turbinali burg‘ilash usullarida quvurlar birikmasini mustahkamlikka hisoblash.	2+2
6	7-amaliy mashg‘ulot	Qiya yo‘naltirilgan quduq profilini hisoblash va qurish.	2
7	8-amaliy mashg‘ulot	Quduqning burg‘ilash rejimini tanlash va asoslashga doir misollar.	2
8	9-10-amaliy mashg‘ulot	Rotorli va turbinali usullarda quduq tanasining yuvilishini gidravlik hisobi.	2+2
9	11-amaliy mashg‘ulot	Burg‘ilashdagi qiyinchiliklar va halokatlarni bartaraf etishga doir misol va masalalar	2
10	12-amaliy mashg‘ulot	Quduq konstruksiyasini tanlash va asoslashga doir misollar	2
11	13-amaliy mashg‘ulot	Mustahkamlash quvurlarini hisoblash. Quduqni sementlash jarayonini hisoblash.	2+2
12	14-amaliy mashg‘ulot	Mahsuldor qatlamlardagi quduq profilini gorizontal uchastkalarini loyihalashtirishni bir nechta xususiyatlari.	2
13	15-amaliy mashg‘ulot	Gorizontal quduqni profilini o‘rganish.	2
14	16-amaliy mashg‘ulot	Egrilanishi o‘zgaruvchan radiusli gorizonta quduqni profilini loyihalashtirish (1 tur profili)	2
15	17- amaliy mashg‘ulot	Gorizontal quduqning profilini hisobi bo‘yicha msiollar yechish.	2
Jami			36 soat

1-amaliy mashg‘ulot. Sharoshkali va parrakli burg‘ilar, burg‘i kallagi va kalonnali burg‘ilar, olmosli va maxsus mo‘ljallangan burg‘ilarning tuzilishini o‘rganish.

1.1. Yaxlit burg‘ilash burg‘ilari va parrakli burg‘ilar.

Hozirgi paytda ikki parrakli (2l) va uch parrakli (3l) yuqori qismi qulf rezbali burg‘ilari bo‘lib burg‘ilash tizmasi yoki tub dvigateli bilan biriktiriluvchi, pastki qismidagi ikki va uch parraklar bir biri bilan 180 va 120 burchak ostida joylashtirilgan bo‘ladi (1-rasm).

Ikki parrakli (2l) dolota bir-butun, uch parrakli (3l) dolota esa payvandlangan holda tayyorlanadi. Shtampali parraklar butun korpusga bir-butun tegib turish konturi bo‘yicha payvandlanadi. Parrakli dolotalarning zamonaviy konstruksiyalariga, ikki va uchta yuvuvchi teshiklar o‘rnatilgan bo‘lib, burg‘ulash tizmasidan yo‘naltirilgan yuvuvchi suyuqliklarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri quduq tubiga yetqazib beradi. Dolotalarning teshiklari oralig‘i $2/3$ R kattalikda parmalanadi. Yuvuvchi teshiklarning bunday teshilishi, undan keladigan suyuqliklar parraklar harakatining oldi qismiga tushib, quduq tubidagi maydalangan jinslarni tozalashga imkoniyat yaratadi. Shu bilan birgalikda parraklar yuvilib turadi va yopishgan zarrachalarni xam quduq tubidan uzoqlashtiradi.



1-rasm Ikki parrakli dolota
a) yuqorida yuvuvchi b) pastki qismidan yuvuvchi

1.2. Uch sharoshkali burg‘ilar.

Yaxlit burg‘ulash uchun uch sharoshkali seksiyali dolotalar seriyini holda ishlab chiqariladi. Bu sharoshkalar bir biriga payvandlash yo‘li bilan biriktiriladi. Payvandlangandan keyin dolotaning yuqori qismiga rezba chiqariladi va 2 ta yuvuvchi teshik bilan ta’minlanadi. Hozirgi paytda konstuksiyasi va joylashuvi, jins yemiruvchi elementlari sharoshka tayanchi konstruksiyalarini bir-biridan tubdan farq qiladigan 13 turdag'i uch sharoshkali dolotalar ishlab chiqariladi.

M, MS, S, ST, T turdagи sharoshkalar

Bu turdagи sharoshkalar jins parchalovchi tishlar bilan ta'minlangan bo'lib, korpusning o'qida sharoshkalar frezerlangan yoki sharoshkani o'rniga shtampovka qilingan holda o'rnatiladi.

Balandlik va tishlarning qadami kichiklashadi, tishlarning tepaga qarab o'tkirlashuv burchagi M-dolotadan T-dolotaga utgan sari kattalashdi. M –yumshoq , MS-yumshoq, o'rtacha qattiq, S-plastik, ST-mo'rt, plastik o'rtacha qattiq, T-qattiq.


TK-turdagi sharoshkali dolotalar

TK- venslar ichiga frezerlangan yoki prizma shaklidagi tishlar shtampa qilingan, qattiq qotishma materialdan tayyorlangan.

K va SK turdagи (k-qattiq mustahkam, sk-juda qattiq) jins yemiruvchi qismi sfera shaklida bo'lib, hamma vensalar qattiq qorishmadan iborat, tishlari silindrik shaklda.

MZ (yumshoq-obrazivlik), MSZ-(yumshoq kam sementlangan obrazivlik), SZ-(obraziv o'rtacha qattiq), TZ-(qattiq obraziv), TKZ-(obraziv qattiq mustahkam)-turdagi dolotalar obrazivlik xususiyatigva ega bo'lgan jinslarni burg'ilash uchun mo'ljallangandir.

M-dolota – eng yumshoq, sementlashmagan va plastik jinslarni burg'ilashga mo'ljallangan. O'tkir tishlari kam, o'tkir burchakli, baland, past sharoshkalar shaxmat tartibda joylashgan.



2-rasm. Uch sharoshkali burg'inинг tuzilishi.

1-biriktiruvchi nippelning chetki qirrasi; 2-biriktiruvchi nippelning qulfli rezbasi; 3-ichki tekisligi; 4-burg'ining tirdalib turadigan burtmasi; 5-yog'larni joylashtirish uchun idish; 6-yog'lash moylarini to'ldirib turuvchi tizim; 7-kaft; 8-radial tebratma podshipnik; 9-siljuvchi radial podshipnik; 10-siljuvchi tirkak podshipnik; 11-germetiklovchi element; 12-radial tayanch o'rta sharikli tebratma podshipnik; 13-vensning frezerlangan tishi; 14-o'rta vensning frezerlangan tishi; 15-sharoshkaning chuqqisidagi frezerlangan tish; 16-qattiq aralashmadan qo'yilgan donalar; 17-sharoshka; 18-kaftning soyaboni; 19-qulfli barmoq; 20-barmoqning burtmasi; 21-

kaftning yelkasi; 22-burg‘i korpusi; 23-qattiq qotishmali tish; 24-chetgi sharoshka vensining qattiq qotishmali tishi; 25-o‘rtta sharoshka vensining tishi; 26-chetgi rolikli siluvchi podshipnik; 27-kaft soyaboniga presslangan qattiq qo‘yma tish.


1.3. Olmos burg‘ilar va olmos kirkizmali sintetik polikristal armaturalangan burg‘ilar.

Olmos burg‘ilar tik va qiya yo‘nalgan qurilmalarni qumoq tosh, dolomit, oxaktosh va boshqa tog‘ jinslarni sharoshkali burg‘ilarda burg‘ilaganda samaradorlik tushib ketganda burg‘ilash uchun mo‘ljallangandir.

Olmos burg‘ilar to‘g‘ri qo‘llanilganda quyidagi samaraga erishiladi:
yuqori reysli burg‘ilash tezligi;
tushirish-ko‘tarish jarayonlarini qisqarishi;
vositalarni tejash;
tik quduqlarni burg‘ilashda egrilikni kamaytirish.

Olmos burg‘i xam parrakli burg‘i kabi mustaqil harakatlanuvchi qismlarga ega emas. U fasonli almazli ishonchli kallakdan tuzilgan bo‘lib, u kukun shaklidagi quyma qattiq materialdan bajarilgan bo‘lib, po‘lat korpusi biriktiruvchi qulfak rezba bilan ta’minlangan.

1)



3-rasm. DR. turidagi olmosli radial burg‘i, o‘rtacha abroziv, o‘rtacha qattiq va qattiq jinslarni burg‘ilashga mo‘ljallangan

4-rasm. DT turdaggi olmosli radial burg‘i yumshoq va o‘rtacha qattqlikdagi jinslarni burg‘ilash uchun mo‘ljallangan

Olmosli burg‘ini va burg‘ilash kallagini diametri quduq ustunini diametridan kichik bo‘lganda qo‘llanilishiga ruxsat etiladi va diametrler oralig‘idagi minimal farq quyidagiga mos bo‘lishi kerak (mm).

91.4 ...227 mm olmosli burg‘i va burg‘ilash kallaklarida farq 1,6 mm.

242.1-391.3 mm da – farq 2.4 mm bo‘lishi kerak.

Agarda olmos burg‘ida 40% olmoslar qayta ishlangan bo‘lsa, u holda to‘liq ishlab bo‘lingan hisoblanadi.

ISM turidagi olmosli burg‘ilarni 1967 yildan buyon 150 dan ko‘p har xil diamertda 91.4 –391.3 mm, Ukraina ilmiy-tekshirish konstruktur- texnologik instituti tomonidan ishlab chiqiladi.

1.4. Maxsus mo‘ljallangan dolotalar

Kolonkali burg‘i: har qanday kolonkali burg‘i konstruksiyasiga bog‘liq bo‘lmagan holda quyidagi asosiy elementlardan tashkil topgan:

1. burg‘ilanadigan namuna atrofidagi jinslarni parchalovchi burg‘ilash kallagi;
2. tashqi korpusi;
3. namunalarni chiqishini ta’minlovchi-ichki kolonka quvuri;
4. namunalarni ushlagich.

Ishlatish qoidasiga ko‘ra burg‘ilar doimiy kolonkali quvurlar va doimiy bo‘lmagan grunt tashuvchi turlarga bo‘linadi.

Doimiy kalonkali quvurlar bilan namunalar qazilganda ularning chiqarish paytida butunlay kolonka chiqariladi, bu esa ishni samaradorligini pasaytirib yuboradi.

Olinadigan grunt tashuvchi dolotalarda esa maxsus arqondagi ushlagich yordamida namunalar chiqarib olinadi.

Kolonkali burg‘ilardagi burg‘ilash kallagi: parrakli, sharoshkalai va almazli turlarga bo‘linadi. Hamma turdagilari kolonkali dolotalarda namunalarni burg‘ilash dolota kallagi yordamida amalga oshiriladi, uzib olish va ushlab olish uchun namuna ushlagich xizmat qiladi.

Almazli burg‘ilash kallagi butun qurilma almaz bilan qurilgan bo‘lib, almazli dolota kabi quduq tubini butunlay parchalashga mo‘ljallangan.

Olinmaydigan (yechilmaydigan) grunt tashuvchi noskali burg‘ilash dolotasi bilan bir marta burg‘ilashda 5-6 m o‘tish mumkin. Yechiladigan grunt burugi burg‘ilashda 3-3,5 m o‘tishi mumkin. Hozirgi paytda quyidagi turdagilari kolonkali burg‘ilash burg‘ilari tayyorlanadi:

- yechiladigan grunt tashuvchi va yechilmaydigan (doimiy) kolonkali quvurli to‘rt sharoshkali burg‘ilash kallakli kolonkali dolotalar quyidagi diametrda tayyorlanadi: 118, 145, 190, 214, 243, 269, 295 va 346 mm

- almazli burg‘ilash kallakli kolonkalar: 96, 116,5, 140, 142,5, 185, 188 va 212 mm diametrarda tayyorlanadi.

Kengaytirgichlar. Yaxlit va kolonkali burg‘i bilan burg‘ilashga o‘tishda quduq diametrini kengaytirish uchun qo‘llaniladi hamda - burg‘ilash jarayonida burg‘ilash asboblarini markazlashtirishda qo‘llaniladi.

Kengaytirgichlar - ishchi organlarining (sharoshka, parrak va boshqa) shakli, mahkamlanish usullari (qattiq mahkamlangan, qismlarga ajratiladigan va kuzgatiladigan) bu organlarning soni va ularni kurollinish bo'yicha tasniflanadi.

Hozirgi paytda ikki turdag'i kengaytirgichlar qo'llaniladi: sharoshkali va parrakli. Eng ko'p qo'llaniladigani uch sharoshkali kengaytirgichdir (8-rasm). U korpusdan tashkil topgan bo'lib, bitta o'qqa uch juft sharoshkalar, uncha katta bo'limgan konuslikda mantaj qilingan sharoshkalar aylana bo'yicha bir – biridan 120 OS burchakda joylashgan.

Uch sharoshkali kengaytirgichlarni diametri 243, 269, 295, 346, 394 va 445 mm bo'ladi. Uch sharoshkali kengaytirgichlardan tashqari 4 va 6 parrakli kengaytirgichlar, bir sharoshkali arrali kengaytirgichlar va burg'i usti shtirli kengaytirgichlar ham ishlab chiqariladi.

1.5. Frezerli burg'i

Bu turdag'i burg'ilar kam abroziv jinsli quduqlarni, sement ko'pragini va quduqdagi metallarni burg'ilashga mo'ljallangan. Frezerli qattiq quyma buralma burg'ilar (KKBB) turida ishlab chiqiladi (9-rasm). Bu burg'ining konstruktiv xususiyati qattiq qo'yma plastinkalar bo'ralma shaklda joylashtirilgan. Burg'i ishchi qismi – sfera shaklida.

Quduq tubi yon kanallar va markaziy kanallar orqali yuviladi. Bu kanallar bo'ralma lentalar faza oralig'idagi otgichlar bilan biriktirilgan. Yemirilgan bo'ralmalar almashtirilib turiladi.

5-rasm. Uch sharoshkali kengaytirgich (diametri 394...445 mm).

1-korpus; 2-kolso; 3-shponka; 4-shpilka; 5-sharoshka; 6- sharoshka o'qi; 7-shayba; 8-ko'ylak.

2-amaliy mashg'ulot. Dolotolarning ish ko'rsatkichlarini qiyosiy taqqoslashni o'rganish. 2.1. Sharoshkali burg'ilarning yeyilishini kodlanishi.

Qabul qilingan boshqaruvchi hujjat(RD)larga asosan burg'ilarning yeyilishini quyidagicha kodlanadi.

V – jihozlarning yeyilishi (hech bo'limganda bitta halqasi);

V1 – tishlar balandligining 0.25 miqdorga kamayishi;

V2 – tishlar balandligining 0.50 miqdorga kamayishi;

V3 – tishlar balandligining 0.75 miqdorga kamayishi;

V4 – tishlar balandligining 1.00 miqdorga kamayishi (butunlay yeyilishi);

S – tishlarda yoriqlarning mavjudligi, qattiq qotishmali tishlarning yorilishi yoki qolishi, ularning soni (%) larda yoziladi;

P – tayanchning yeyilishi (hech bo'limganda bitta sharoshka);

P1 – sapfa o'qiga nisbatan sharoshkaning radial lyufti 216 mm gacha diametrli burg'ilar uchun 0 – 2 mm, 216 mm dan katta diametrli burg'ilar uchun 0-4 mm;

P2 – huddi yuqoridagidek 216 mm gacha 2-5 mm, 216 mm dan ortiq bo'lganda 4-8 mm;

P3 – huddi yuqoridagidek 216 mm gacha diametrli burg‘ilar uchun 5 mm dan ortiq, 216 mm dan katta diametrtdagi burg‘ilar uchun 8 mm dan ortiq, sharoshkaniaylanish davomida “Butunlay yeyilishi”;

P4 – tebranuvchi tanalarning ishdan chiqishi yoki ularning tushib qolishi, sharoshkalarda darzlarning hosil bo‘lishi;

K – sharoshkalarni qotib qolishi, ularni soni qavs ichida ko‘rsatiladi;

A – halokatli yeyilish;

AV – sharoshka uchining sinishi va tushib qolishi;

AS – kurakning sinishi va tushib qolishi.

Tushib qolgan sharoshkalar, ularning uchlari va kuraklar soni qavs ichida ko‘rsatiladi.

D – burg‘i diametrining kamayishi, mm.

Quyidagi sharoshkali burg‘ilarning yeyilishini kodlanishiga misollar keltirilgan:

1-misol. Burg‘i jihozlari tishning balandligi bo‘yicha 0.5 miqdorda ishdan chiqqan, birinchi sharoshkadagi tishlarning taxminan 40 foizi darzlarga ega, 215.9 T-V turdagи burg‘ining sapfasi o‘qidan sharoshka toretsining chetga chiqishi taxminan 4 mm, burg‘i diametri 4 mm ga kamaygan.

Burg‘ining yeyilishini quyidagicha kodlash mumkin:

V2 S(40) P2 D4.

2-misol. Jihozlar qattiq qotishmali itshchaning balandligi bo‘yicha 0.1 miqdorda ishdan chiqqan; uchinchi sharoshkadagi qattiq qotishmali tishchalarning 30 foizi o‘rnidan ko‘chgan va sharoshka qotib qolgan, birinchi sharoshka quduq tubida qolgan. 295.3 SZ-GV turdagи burg‘ining sapfa o‘qidan sharoshka toretsining chetga chiqishi 3 mm ga teng.

Burg‘ining yeyilishini kodlanishi quyidagicha bo‘ladi:

A2 (1).

1-masala.

Ikki burg‘ining ish ko‘rsatkichlarini qiyosiy baholang.

1-jadval

Ko‘rsatkichlar Hisoblash uchun variantlar	Хисоблаш учун варианtlар											
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
h ₁ , м	60	65	63	50	55	62	61	59	58	77	66	70
t ₆₁ , м/с	10	12	11	8	9	10	11	10	9	13	12	15
h ₂ , м	40	45	43	50	48	42	48	50	51	60	66	35
t ₆₂ , м/с	8	10	9	6	8	8	9	8	9	10	11	7

1-masala quyidagi ma’lumotlar asosida ikkita burg‘ini ish qobiliyatiga qiyosiy baho berilsin:

а) биринчи бурғи h₁=60 метр чукурликка t₆₁=10 соатда ўтди;

б) иккинчи бурғи h₂=40 метр чукурликка t₆₂=8 соатда ўтди;

Ечиш: биринчи ва иккинчи бурғиларнинг механик ўтиш тезликларини аниқлаймиз:

$$\vartheta_{mex1} = \frac{h_1}{t_{61}} = \frac{60}{10} = 6 \text{ м/соат}$$

$$\vartheta_{mex2} = \frac{h_2}{t_{62}} = \frac{40}{8} = 5 \text{ м/соат}$$

Masalaning javobidan ko‘rinib turibdiki $h > h_2$ va $v_{MEx1} > v_{MEx2}$ birinchi burg‘ining ish ko‘rsatgichi ikkinchi burg‘idan yuqori.

Mustaqil yechish uchun topshiriq.

2-masala. Quyidagi ma’lumotlar asosida ikkita burg‘ining ish ko‘rsatgichlariga qiyosiy baho bering.

- birinchi burg‘i $h=70$ metr chuqurlikka $t_{61}=15$ soatda;
- ikkinchi burg‘i $h_2=35$ metr chuqurlikka $t_{62}=7$ soatda

3-amaliy mashg‘ulot. Gidrostatik indikatorning (GIV)ning ish prinsipini shrganish.

3.1. Burg‘ilash rejimi parametrlarini nazorati.

Quduqni qazish chuqurligi oshgan sari va o‘tish tezligining tezlashishi, burg‘ining o‘qiy yuklanishiga ta’sir etuvchi burg‘ilash nasosi bosimi P_H , burg‘ining aylanish tezligi (n), aylanish momenti M , yuvish suyuqligi sarfi Q , mexanik o‘tish tezligi V_M –ga bo‘lgan talab oshadi.


Burg‘ilash ishlarini nazorat qilish asboblaridan biri bu gidravlik indikator tarozidir. Bu asbob minoraga, tizimlarga tushadigan, ortiqcha yuklanishlarni aniqlashda qo‘llaniladi.

Indikator tarozisi yuklanmalardan tashqari, burg‘ilash jarayonida burg‘iga beriladigan yuklanmani va quduqdan burg‘ilash tizmasi quvurlarini ko‘tarishdagi ishqalanish kuchlarini aniqlash imkoniyatini beradi. Bundan tashqari indikator tarozisi salniklarda paydo bo‘ladigan, quduqlardagi avariya holatlarini bartaraf qilishda, tal tizimida yuklanmalarni nazorat qilishning imkoniyatini beradi.

Indikator tarozisining o‘zi yozuvchi diagrammasi yordamida har xil ishlarni bajarishga sarflanadigan vaqt, ko‘tarish-tushirish jarayoni va o‘sishi aniqlanadi.

GIT (gidravlik indikator tarozi) – tal arqonining qo‘zg‘almas ichida taranglashishni yozadi va o‘lchaydi.

GITB (bosimni o‘lcham gidravlik indikator tarozisi) va GITYU (yuklanmani o‘lchash gidravlik indikator tarozisi) – yuvish suyuqligi bosimini o‘lchaydi va yozadi.



6-rasm. GIT – Gidravlik indikator tarozisi prinsipli tarxi.

1-bosim transformatori; 2-monometr; 3-vernyer monometr; 4–ruyxatga olgich; 5–nasos; 6–muzlamaydigan suyuqlik idishi; 7-mis quvurchalar; 8-rolik; 9-bosim transformatori; 10-tortuvchi arxon.

Burg‘ilash uskunasi og‘irligi quyidagicha aniqlanadi: arqon tortilishi 10-chi, ikkita oraliqni rolik 8-chi, 1-chi korpusga tayangan bosim transformator, o‘rtacha transformator 9-chi, siljituvchi tarelka membranaga tayanadi, tortishish kuchining teng ta’sir etuvchisi membranaga uzatiladi.

Arqonning taranglashishiga proporsional holda transformator xonasida bosim paydo bo‘ladi.

Burg‘ilash jarayoni parametrlari joriy nazorat quyidagi asboblar yordamida amalga oshiriladi: indikator massasi (tarozisi), monometr, mometomer, taxometr. Hamda mexanik va o‘tish tezliklarini o‘lchash asboblari.

Indikator massa (tarozzi) – har bir momentdagi burg‘iga beriladigan o‘q bo‘yicha yuklanma indikator massasi bilan o‘lchanadi. Tal tizimi ilgagiga ta’sir etuvchi yuklanma ham bu asbob yordamida topiladi. Neft va gaz quduqlarini burg‘ilashda gidravlik indikator massasi ko‘proq qo‘llaniladi.

Indikator massasi transformator (mesdoza), korpusdan va likopka shaklidagi porshendan tuzilgan. Tal arqoni, rolikli tayanchlar, korpusdan va rolikli tayanch porshenni aniq burchagida egilgan. Bosim transformatori arqonning uchiga qo‘zg‘almas qilib mahkamlangan. Arqon o‘qini egilishi hisobiga zo‘riqish paydo bo‘ladi, qaysiki u rezina xonasiga tirkalgan va suyuqlik bilan to‘ldirilgan. Suyuqlik zo‘riqishni qabul qiladi va quvurcha tizimi orqali ko‘rsatuvchi va yozuvchi manometrlarga uzatadi.

Indikator massasi jamlanmasi bosim transformatoridan tashkil topgan bo‘lib, bittasi ko‘rsatuvchi monometr va ikkinchisi aylanma diagrammali o‘zi yozuvchi monometrdan iborat bo‘lib, soat mili bo‘yicha bir sutkada bir marta aylanadi.

Indikator diagrammasini o‘qish: Indikator massasi (tarozisi) qayd qilish qismi diagrammasi bo‘yicha rejimi parametrlariga rioya qilishini nazorat qilish mumkin. Indikator massasi (tarozisi) diagrammasida ko‘tarish ilgagidagi asboblarning massasini tebranishi kun davomida belgilab boriladi.

Gidravlik indikator massasi diagrammasi qog‘ozga konsentrik aylana chizilgan doira ko‘rinishidadir.

Qalin qora aylanalari monometr bo‘linmalariga mos bo‘lgan 0, 10, 20, ..., 100 birliklarga to‘g‘ri keladi. Bu aylanalar orasidagi fazo 10 qismlarga bo‘lingan bo‘lib, ularni har biridan ingichka aylanachalar o‘tadi. Shunday qilib har ikkita qo‘shni aylanalar orasidagi oraliq manometrnning bitta bo‘linmasiga mos keladi.

0 dan 100 gacha bo‘lgan belgilar markazdan chekkasiga qarab ketadi. Tashqi aylana 24 qismga bo‘lingan bo‘lib, har bir bo‘limma 1 soatga mos keladi, ulardan har biri 4-ga bo‘lingan bo‘lib, harbir bo‘linma 15 minutga mos keladi. Agarda diagrammadagi chiziq bitta aylanaga parallel o‘tsa, u holda bu vaqt bo‘lagi davomida ilgakdagi massa o‘zgarmagan. Bunday holat to‘xtab turganda yoki o‘zgarmas yuklanmadagi burg‘ilash jarayoniga to‘g‘ri keladi.

4-amaliy mashg‘ulot. Burg‘ilash quvurlar birikmasi va og‘irlashtirilgan burg‘ilash quvurlarining turlari va o‘lchamlarini tanlashni o‘rganish.

4.1. Burg‘ilash tizmasining elementlari.

Burg‘ilash tizmasi elementlariga quyidagilar kiradi: uzatmalar, rezina xalqa, teskari klapanlar va tayanch – markazlash elementlar. Burg‘ilash quduqlarini uzatmalarini burg‘ilash

tizmalarini har xil ko‘rinishdagi biriktiruvchi elementlaridan iborat. Besh xil turdagи uzatmalar mavjud bo‘lib, ular ikkita guruhga bo‘linadi: shtangali – burg‘ilash quvurini vertlyug va burg‘ilash quvurlari biriktirish uchun; oraliqli – tizmaning boshqa elementlarini biriktirish uchun (3-jadval).

Burg‘ilash tizmasi asboblarini uzatmalari konstruksiyasi, materiali va o‘lchamlari bo‘yicha burg‘ilash quvurlari bilan umumiylikka ega bo‘lib, qulf rezbalari bir xildir. Uzatmalar ham o‘ng ham chap rezbalari bilan ta’minlanadi. Standartlar bo‘yicha 90 turdagи har xil o‘lchamli uzatmalar tayyorланади (5-rasm).


Burg‘ilash quvurlarini rezina xalqalari – quduqlarni burg‘ilashda burg‘ilash va himoya tizmalarini uzaro yoyilishdan himoya qilishda qo‘llaniladi. Rezina xalqalar yechiladigan va yechilmaydigan turda tayyorланади. Yechilmaydigan rezina xalqalarni burg‘ilash quvurlariga kiydirishda maxsus pnevmomashinalar qo‘llaniladi. Quvurga rezina xalqani kiydirishdan oldin 10-15 min davomida 80-90 0S issiq suv haroratda qizdiriladi. Rezina xalqani kiydirishdan oldin quvur g‘adir-budirlikdan va qulfni o‘tkir bo‘lakchalaridan tozalanadi.

Burg‘ilash quvurlarini teskari klapanlari – burg‘ilash jarayonida quduqlardan burg‘ilash quvurlari orqali gaz-neft paydo bo‘lishini oldini olish uchun mo‘ljallangan. Neft va gaz quduqlarini burg‘ilash jarayonida «SevKav. NiPi neft» instituti tomonidan ishlab chiqarilgan teskari klapanlar keng qo‘llanilmoqda.

Burg‘ilash quvurlarini qulfi. Qulf burg‘ilash quvurlari tizmasini biriktirish uchun xizmat qiladi va har xil turlari mavjud. Qulf ikkita detaldan tuzilgan (8-rasm). Qulflri nippel 1-tashqi rezbadan, qulf mufta 2-ichki katta rezbadan; burg‘ilash quvurlari bilan qulf detallarni biriktirish uchun mayda quvurli rezbalari yo‘nilgan. Yaxlit payvandli quvur qulflar uchun quvur rezba bilan birgalikda dum ham mavjud.

4.2 Og‘irlashtirilgan burg‘ilash quvurlari.

- 1) Og‘irlashtirilgan burg‘ilash quvurlari burg‘ilash tizmasining pastki qismiga o‘rnatilib, tizmani qattiqligini, mustahkamligini oshiradi va burg‘iga yuklanma beradi.
- 2) Hozirgi vaqtida OBK ning bir necha turlari mavjuddir.
- 3) Muvozanatlangan og‘irlashtirilgan burg‘ilash quvuri – MOBK2. Bu turdagи quvur xromnikelmolibdenli po‘latdan tayyorlanib, faqat uchlari issiqlik ishlanmasidan o‘tkaziladi. OBQ kanali parmalash yo‘li ar n olinadi, quvurni muvozanatlashtirish uchun mexanik ishlanma beriladi. MOBK2 – 178, 203 va 229 mm diametrarda tayyorланади.
- 4) Issiq o‘ramli OBQ – 73, 89, 109, 146, 178, 203, 219, 245 mm-li diametrarda ishlab chiqariladi. Bu turdagи OBQ ar butun uzunligi bo‘yicha silliq holda mustahkamligi D va K po‘lat guruhlardan tayyorланади. Issiq uramli OBQ ar 2000-2500 metr chuqurlikdagi geologik sharoiti murakkab bo‘lmagan quduqlarni burg‘ilashda qo‘llaniladi.
- 5) Qulflri og‘irlashtirilgan burg‘ilash quvurlari KOBQ3 – quvurlarni burg‘ilashda rezbalarni yemirilishini va rezbali birikmalarni mustahkamligini oshirish, hamda ta’mirlash ishlarini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi.



7-rasm. O'zatmalarni qo'llash sxemasi. 1-vertlyug; 2-vertlyugning o'zatmasi; 3-yuqori yetakchi quvurning o'zatmasi (o'tkazgich); 4-yetakchi burg'ilash quvuri; 5-pastki yetakchi quvur o'zatmasi; 6-oldindan himoyalovchi yoki o'tish uzatmasi; 7-burg'ilash quvuri qulfi; 8-burg'ilash quvuri; 9-burg'ilash quvuri nippeli; 10-ikki muftali o'zatma; 11-tutkich metchiki; 12-OBQ; 13-ikki nippelli o'zatma; 14-gidravlik tub dvigatel.

4.3. Og'irlashtirilgan parmalash quvurlari

Og'irlashtirilgan parmalash quvurlari (OPQ) parmalash birikmasining pastki qismiga turg'unlik va dolota og'irlik berish uchun xizmat qiladi.

Og'irlashtirilgan parmalash quvurlari mustahkamlik markasi D, K bo'lgan va xromnikelmolibdenli po'latlardan g'o'lasimon qilib yasaladi va parma bilan teshiladi. Kesim yuzasi yumaloq, kvadrat va spiral shaklda bo'ladi. Ularning ikkala boshlariga yirik rezba chiqariladi. OPQ to'g'risidagi kerakli ma'ulmotlar 6.8-jadvalda keltirilgan.


OPQ buyurtmaga binoan uzunligi 6, 8, 9, 12 metrli qilib tayyorlanishi mumkin. Ularning egriligi 4-6 mm dan oshmasligi kerak. Buyurtmaga binoan OPQda elevator uchun joy chiqarilmasligi mumkin.

Xorijiy davlat zavodlari API - standarti bo'yicha OPQ chiqradi. Ularning diametri 76.2 mm dan 285.8 mm gacha bo'ladi. OPQ SAE 4140, 4142, 4145 markali xromnikilli po'latlardan yasaladi. Uzunligi 9,14 va 9,45 m bo'lib, 15 sm uzun yoki kalta bo'lishi mumkin. Ba'zan firmalar 12-13 m uzunlikda ham OPQ chiqaradi. Spiral OPQ ning tanasiga spiral shaklda ariqchalar o'tkazilgan. Ariqchalarning chuqurligi OPQ ning diametriga qarab 4,0 -11,9 mm bo'ladi.

2-jadval

Shartli belgisi	Tashqi diametri, mm	Rezbasi	Teshik diametri, mm	Elevator o'rnatiladigan joyning diametri, mm	1 m OPQ og'irligi
UBT - 120	120	3-101	64	102	63.5
UBT - 133	133	3-108	64	115	84.5
UBT - 146	146	3-121	68	136	103.6
UBT - 178	178	3-147	80	168	156.3
UBT - 203	203	3-161	80	190	214
UBT - 229	229	3-171	90	195	273
UBT - 254	254	3-201	100	220	330

UBT – 273	273	3-201	100	220	397
UBT - 299	299	3-201	100	245	489



8-rasm. Burg'ilash qulflari. A-KK- li; b-NK-li; v-UK-li; 1-nippel; 2-mufta.

5-amaliy mashg'ulot. Rotorli va turbinali burg'ilash usullarida quvurlar birikmasini mustahkamlikka hisoblash.

Neft va gaz quduqlarini burg'ilash jarayonida burg'ilash tizmasini tarkibi to'g'ri tanlanishi kerak. Quduqlarni burg'ilashda burg'ilash tizmasini elementlariga siquvchi, chuzuvchi, egiltiruvchi va har xil zo'riqtiruvchi kuchlanishlar ta'sir qiladi. Quduqlarni burg'ilash jarayonida burg'ilash tizmasi qisilib qolishi, ko'tarish jarayonida quvurlar birikmasi ushlanib qolganda ruxsat etilganda kattaroq zo'riqishlar paydo bo'ladi. Shuning uchun 5-chi va 6-chi mashg'ulotlarda quvurlar birikmasini chidamlikka , statik mustahkamlikka hisoblarini ko'rib chiqamiz.

5.1. Rotorli va turbinli burg'ilash usullarida quvurlar birikmasini mustahkamlikka hisoblash

1. O'zgaruvchan egilish kuchlanishlarini quyidagi formula bo'yicha aniqlaymiz:

$$\sigma_a = \frac{\pi^2 EI f}{2 \cdot 10 L^2 W_{se}}, \quad (1)$$

bu yerda: E – Yung moduli, H/sm² (E=21·10⁶); I - quvur kesimining o‘qli inersiya momenti, sm⁴ [I = $\frac{\pi}{64} (d_{\delta.m}^4 - d_{\delta.u}^4)$, bunda, $d_{\delta.m}$; $d_{\delta.u}$ - mos ravishda quvurning tashqi va ichki diametrlari], см; f – egilish radiusi, см [f=0,5(D_K - D_{кулф})], bunda D_K – quduq diametri, см (D_K = 1,1 · D_δ); (D_δ – бурғи diametri, см D_{qulf} – burg‘ilash qulfi diametri, см; Weg – quvurlar tanasi xavfli qismining qarshilik momenti, см³].

24-jadval [1] ga asosan I=583 см⁴; q_{δ.K}=29,3 kg.

Aynan og‘irlashtirilgan burg‘ilash quvurlari ustidagi kesim uchun yarim yoyning uzunligi quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$L = \frac{10}{\omega} \cdot \sqrt[4]{\frac{0,21\omega^2}{q}} .$$

Bu yerda: ω – quvurlar birikmasi aylanishining burchak tezligi, rad/s; q - kg/sm da; L - см⁴ da olamiz. U holda

$$L = \frac{10}{9,42} \cdot \sqrt[4]{\frac{0,2 \cdot 583 \cdot 9,42^2}{0,293}} = 14,55 \text{ м} .$$

Quvur (11,5 м) va yarim yoyning uzunliklarining bir-biridan kam farq qilishini hisobga olib L=12 м deb qabul qilamiz.

24-jadval [1] bo‘yicha D_{qulf}-155 mm.

Quvurlar birikmasining egilish radiusini aniqlaymiz.

$$f = 0,5 \cdot (1,1 \cdot 19,05 - 15,5) = 2,7 \text{ см} .$$

Weg ning qiymatini quyidagi formula bo‘yicha aniqlash mumkin:

$$W_{\sigma_e} = \frac{\pi}{32} \cdot \frac{D_{yym}^4 - d_{yyu}^4}{D_{yym}}$$

D_{yym} - quvurni o‘rnatilgan uchining tashqi diametri, см; D_{yyu} - quvurni o‘rnatilgan uchining ichki diametri, см; L – yarim yoyning uzunligi, м.

24-jadval [1] ga asosan Weg=133,3 см³. U holda (8) formula bo‘yicha:

$$\sigma_a = \frac{3,14^2 \cdot 21 \cdot 10^6 \cdot 583 \cdot 2,7}{2 \cdot 10^6 \cdot 12^2 \cdot 133,3} = 8,49 \text{ МПа} .$$

2. Egilishning doimiy kuchlanishlarini quyidagi formula bo‘yicha aniqlaymiz:

$$\sigma_a = 2 \cdot \sigma_a = 2 \cdot 8,49 = 16,98 \text{ МПа} .$$

3. Chidamlilik uchun mustahkamlik zahirasi koeffitsiyentini aniqlaymiz:

$$n = \frac{(\sigma_{-1})_D}{\sigma_a + (\psi_\sigma)_D \sigma_m} ,$$

bu yerda: $(\sigma-1)D$ – chidamlilik chegarasi (atmosferada), MPa. Bu qiymatni 38-jadval [1] dan olinadi.

Agar $(k\sigma)D$ qiymat 38-jadval [1] da mavjud bo‘lmasa, uni quyidagi formula bo‘yicha aniqlash mumkin:

$$(k_{-1})_D = \sigma_{-1} / (\sigma_{-1})_D$$

«Burg‘ilash quvurlarini hisoblash bo‘yicha umumiyo ko‘rsatmalar» [1] ga asosan $(\sigma-1)D = 87,5$ MPa; $(\sigma-1) = 310$ MPa. U holda

$$(k_\sigma)_D = 310 / 87,5 = 3,54; \psi_\sigma = 0,1.$$

$$(\psi_\sigma) = 0,1 / 3,54 = 0,028.$$

$$n = \frac{87,5}{8,49 + 0,028 \cdot 16,98} = 9,76$$

Chidamlilik uchun mustahkamlik zahirasi koeffitsiyenti $n \geq 1,9$ bo‘lishi kerak. Bizni misolda $n=9,76$, ya’ni yetarlicha.

Olingan ma’lumotlar asosida burg‘ilash quvurlarining mustahkamligi bo‘yicha xulosa yoziladi.

6-amaliy mashg‘ulot. Rotorli va turbinali burg‘ilash usullarida quvurlar birikmasini mustahkamlikka hisoblash.

6.1. Statik mustahkamlikka hisoblash.

Statik mustahkamlikka hisoblash cho‘zilish va urinma kuchlanishlarning birlgilidagi ta’sirini e’tiborga olib amalga oshiriladi.

1. V 127x9-D markali quvurlardan tashkil topgan birinchi (pastki) seksiyaning uzunligini 2200 m deb qabul qilamiz. Bu seksiyaning og‘irligi $Q_b \cdot q = 2200 \cdot 293 = 644600 \text{ N} = 0,645 \text{ MN}$.

$$\sigma_u = \frac{k(Q_{\delta,\kappa} + Q_{o\delta\kappa}) \left(1 - \frac{\rho_{\delta,\kappa}}{\rho_m} \right) + \rho_0 F_u}{F_\kappa}$$

bu yerda: ρ_0 – burg‘ida bosimning pasayishi, MPa; F_i – quvurning ichki muhiti kesim yuzasi, sm²; F_q – quvur tanasining kesim yuzasi, sm²; k – burg‘ilash eritmasining harakatiga qarshilik qiluvchi ishqalanish va inersiya kuchlarining ta’sirini hisobga oluvchi koeffitsiyent.

(7) – ifodaga quyidagi sonli qiymatlarni qo‘yamiz: $Q_b \cdot q = 0,645 \text{ MN}$; $\rho_0 = 7 \text{ MPa}$; $Q_{obq} = 0,16 \text{ MN}$; $F_i = 93,3 \text{ sm}^2$ (24-jadval) [1]; $\rho_b \cdot e = 1,2 \text{ g/sm}^3$; $\rho_m = 7,85 \text{ g/sm}^3$; $F_q = 33,4 \text{ sm}^2$ (24-jadval) [1]; $k = 1,15$. Natijada quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$\sigma_u = \frac{1,15 \cdot (0,645 + 0,16) \cdot \left(1 - \frac{1,2}{7,85} \right) + 7 \cdot 93,3 \cdot 10^{-4}}{33,4 \cdot 10^{-4}} = 254 \text{ MPa}.$$

2. Berilgan seksiya uchun urinma kuchlanishlarni quyidagi formula bo'yicha (N/sm^2 da) aniqlaymiz:

$$\tau = M_{\delta_{\text{hyp}}} / W_{\delta_{\text{hyp}}},$$

bu yerda: W_{bur} – burg'lash birikmasining aylanishidagi qarshilik momenti, sm^3 ,
 $[W_{\delta_{\text{hyp}}} = \frac{\pi}{16} \left(\frac{d_{\delta.m}^4 - d_{\delta.u}^4}{d_{\delta.m}} \right)]$; M_{bur} – burg'lash birikmasiga uzatiladigan burovchi moment, $\text{N}\cdot\text{sm}$.

$$M_{\delta_{\text{hyp}}} = 974000 \frac{N_a + N_{\delta}}{\frac{30}{n_{\delta} \frac{\pi}{30}}},$$

N_a – burg'lash birikmasining aylanishiga sarflanadigan quvvat, kVt .

$$N_a = 1,35 \cdot 10^{-4} L^2 d_{\delta.m}^2 \left(\frac{30 n_{\delta}}{\pi} \right)^{1,5} D_{\delta}^{0,5} \rho_{\delta},$$

L – birikma (kolonna) ning uzunligi, m; d – burg'lash quvurlarining tashqi diametri, m; n_b – burg'inining aylanish chastotasi, rad/s; D_b – burg'i diametri, m; ρ_b – burg'lash eritmasining zichligi, g/sm^3 .

$$N_a = 1,35 \cdot 10^{-4} \cdot 2200 \cdot 0,127^2 \cdot (9,42 \cdot 30 / 3,14)^{1,5} \cdot 0,19^{0,5} \cdot 1,2 = 21,39 \text{ kBT}.$$

N_{δ} – burg'inining aylanishiga sarfdanadigan quvvati, kVt

$$N_{\delta} = C 10^{-4} \cdot 398 n_{\delta} D_{\delta}^{0,4} P_{\delta}^{1,3} \frac{30}{\pi},$$

C – jinslarning qattiqlik koeffitsiyenti (yumshoq jinslar uchun $S=7,8$; o'rtacha qattiqlikdagi jinslar uchun $S=6,95$; qattiq jinslar uchun $S=5,56$); D_b – burg'i diametri, mm; R_b – burg'ini yuklanishi, MN.

$$N_{\delta} = 6,95 \cdot 398 \cdot 10^{-4} \cdot (9,42 \cdot 30 / \pi) \cdot 190^{0,4} \cdot 0,12^{1,3} = 12,89 \text{ kNm}$$

Burg'lash birikmasining aylanishi uchun burovchi momentning qiymati.

$$M = 974000 \cdot \frac{21,39 + 12,89}{9,42 \cdot \frac{30}{3,1415}} = 371025,8 \text{ H}\cdot\text{cm}.$$

Urinma kuchlanish

$$\tau = 37125,8 / 183,87 = 2017,87 \text{ H}/\text{cm}^2 = 20,18 \text{ MPa}.$$

3. Mustahkamlik zahirasi koeffitsiyentini normal va urinma kuchlanishlarning birgalikdagi ta'sirini hisobga olib quyidagi formula bo'yicha hisoblash mumkin:

$$n = \frac{\sigma_{\text{T}}}{\sqrt{\sigma_u^2 + 3\tau^2}}$$

yoki taxminan

$$n = \frac{\sigma_{\text{T}}}{1,04\sigma_u}$$

Vertikal quduqlarning burg‘ilash uchun normal sharoitlarda $n=1,4$ qiyinlashgan burg‘ilash sharoitlarda esa $n=1,45$ bo‘lishi kerak.

$$n = \frac{380}{\sqrt{254^2 + 3 \cdot 20,18^2}} = \frac{380}{256,7} = 1,48 \text{ ya’ni yetarlicha } (>1,45).$$

Ikkinci seksiyani 3200 m uzunlikda K mustahkamlik guruhidagi po‘latdan tayyorlangan quvurlardan tanlaymiz. Hisoblashni oldingiga holda bajaramiz.

Quvurlarni og‘irligi $3200 \cdot 293 = 937600 \text{ H} = 0,938 \text{ MN}$.

$$\sigma_u = \frac{1,15 \cdot (0,938 + 0,16) \cdot \left(1 - \frac{1,2}{7,85}\right) + 7 \cdot 93,3 \cdot 10^{-4}}{33,4 \cdot 10^{-4}} = 340 \text{ MPa} .$$

$$N_a = \frac{1,35 \cdot 10^{-4} \cdot 3200 \cdot 0,127^2 \cdot (9,42 \cdot 30 / 3,14)^{1,5} \cdot 0,19^{0,5} \cdot 1,2}{N_{\delta} = 12,89 \text{ kNm}} = 3,1 \text{ kNm} .$$

$$M_{\delta_{\text{yp}}} = 974000 \cdot \frac{31,1 + 12,89}{9,42 \frac{30}{3,14}} = 476069,5 \text{ H} \cdot \text{cm} .$$

$$\tau = \frac{476069,5}{183,87} = 2589,16 \text{ H/cm}^2 = 25,89 \text{ MPa} .$$

$$n = \frac{500}{\sqrt{340^2 + 25,89^2}} = \frac{500}{342,71} = 1,46, \text{ яъни етарлича.}$$

Shunday qilib, ikkinchi seksiyaning uzunligi

$$l_2 = l_{\text{pyx.9K}} - l_{\text{pyx.9Д}} = 3200 - 2200 = 1000 \text{ m} .$$

Uchinchi seksiyani YE mustahkamlik guruhidagi quvurlardan tuzamiz. Bu quvular uchun mumkin bo‘lgan tushirish chuqurligini quduq chuqurligiga, ya’ni 3500 m ga teng deb qabul qilamiz.

Quvurlarni og‘irligi: $3500 \cdot 293 = 1025500 \text{ H} = 1,026 \text{ MH}$.

$$\sigma_u = \frac{1,15 \cdot (1,026 + 0,16) \cdot \left(1 - \frac{1,2}{7,85}\right) + 7 \cdot 93,3 \cdot 10^{-4}}{33,4 \cdot 10^{-4}} = 365 \text{ MPa} .$$

$$N_a = \frac{1,35 \cdot 10^{-4} \cdot 3500 \cdot 0,127^2 \cdot (9,42 \cdot 30 / 3,14)^{1,5} \cdot 0,19^{0,5} \cdot 1,2}{N_{\delta} = 12,89 \text{ kNm}} = 34,03 \text{ kNm} .$$

$$M_{\text{öyp}} = 974000 \cdot \frac{34,03 + 12,89}{9,42 \frac{30}{3,14}} = 510700,67 \text{ Н·см.}$$

$$\tau = \frac{510700,67}{183,87} = 2777,51 \text{ Н/см}^2 = 27,77 \text{ МПа.}$$

$$n = \frac{500}{\sqrt{365^2} + 3 \cdot 27,77^2} = 1,49, \text{ яъни етарлича.}$$

Uchinchi seksiyaning uzunligi

$$l_3 = l_{\text{pyx.E}} - l_{\text{pyx.K}} - l_{\text{oök}} = 3500 - 3200 - 150 = 150 \text{ м.}$$

Eslatmalar:

- Ish ko'rsatkichlari yaxshi bo'lishi uchun burg'ilash birikmasi bir-biridan devor qalinligi yoki mustahkamlik guruhi bilan farqlanadigan bir xil diametrli quvurlarning eng kam sonli (uchtagacha) seksiyasidan tashkil topgan bo'lishi kerak.
- Aralash usullar (rotorli va turbinali) qo'llanganda hisoblashlarni rotorli burg'ilashda quvurlar birikmasining eng og'ir ish sharoitlarini e'tiborga olib bajarish kerak.
- Quduq tubini havo bilan tozalashda ham burg'ilash quvurlarini yuqoridagidek hisoblanadi. Faqat bunda $\left(i - \frac{\rho_{xao}}{\rho_u} \right)$ miqdor 1 ga teng deb olinadi.

Hisoblashlar natijalarini quyidagi jadvalda keltiramiz:

3-jadval

Ko'rsatkichlar	Seksiya nomeri (pastdan yuqoriga)		
	1	2	3
Devor qalinligi, mm	9	9	9
Quvurlar materialining mustahkamlik guruhi	Д	К	Е
Joylashish oralig'i, m	1150-3350	150-1150	0-150
Seksiya uzunligi, m	2200	1000	150
1 m quvurning oralig'i, N/m	293	293	293
Seksiyani og'irligi, MN Burg'ilash quvurlarining umumiyligi og'irligi, MN	0,645	0,293 0,981	0,0439
Burg'ilash birikmasining umumiyligi og'irligi (OBQ ni hisobga olganda)		1,141	

Xulosa.

8-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, burg'ilash birikmasi YE, K, D markali quvurlardan mos ravishda 150, 1000 va 2200 m uzunlikdagi 3 ta seksiyaga jamlab quduqqa tushiriladi.

**7-amaliy mashg'ulot. Qiya yo'naltirilgan quduq profilini hisoblash va qurish.
Og'ma quduqlar.**

7.1. Tik quduqlarni ogishiga qarshi tadbirlar.

Quduqlarni qurilishida quyidagi yo'nalishdagi ustunlar bo'lishi mumkin.


Quduq ustuni tik holatda.

Quduq ustuni tiklikga nisbatan oggan.

Quduq ustuni bitta tekislikka nisbatan tekis qiyshaygan.

Quduq ustuni bir qator fazoviy egilishlarga ega.

Birinchi holatda quduq to‘g‘ri yoki tik deyiladi, qolgan holatlarda esa yo‘naltirilgan deyiladi.



9-rasm. Qiya quduqlarning profili.

1-tik qismi; 2-egrilikka intilish qismi; 3-egrilikni barqarorlashgan qismi; 4-tik qismi yoki egrilikdan chetga chiqish; 5-tik qismi;

Quduqlar tik yo‘nalishdan juda kichik qiymatdagi og‘ish burchagiga ega bo‘lishi mumkin. Hozirgi zamon texnologiyasi quduqlarni tik yo‘nalishdan og‘ishini 2-30 dan oshib ketmaslik darajasigacha ta’milaydi.

Ko‘p hollarda og‘ish holatlari oldini olish tadbirlarini nazorat qilmaslik quduqlarni egrilanishiga.

Quduq tubi qismini usti qismidan siljishiga olib keladi. Quduqlarni egrilanishi, egrilikni tezda o‘zgarishi, burg‘ilash ishlarini olib borishni mushkullashtiradi. Bunday quduqlarga mustahkamlash tizmalarini tushirish quvurlarni quduq devoriga ishqalanishi, tizmalarni salnik holatiga to‘g‘ri kelishiga va sementlanish ishlarini sifatsiz amalga oshiriladi.

Quduqlarni egriligi mustahkamlash ishlarini amalga oshirishni va neft konlaridan foydalanishni qiyinlashtiradi, sababi quduq tubini quduq ustuni devoridan biror tomonga siljiganligidir. Geologik kuzatuv ishlarini qiyinlashtiradi, qatlamni haqiqiy quvvati haqida to‘g‘ri ma’lumot bera olmaydi.

7.2. Egrilanishning asosiy sabablar.

Quduqlarni egrilanishi tub dvigatellari (turbobur yoki elektrobur) va rotorli burg‘ilash paytida sodir bo‘lishi mumkin. Quduq ustunini tub dvigatellari bilan burg‘ilashda egrilanishi quyidagi sabablar bilan belgilanishi mumkin.

Birinchi guruh burg‘ilash ishlarini tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lib, ularga quyidagilar kiradi: minorani noto‘g‘ri markazlashtirish, turbobur ustida quvurlarni qiyshaygan holda turishi, uzatma va turboburning rezbali birikmalarini orasidagi qiyshayishi.

Qiyshayishning boshqa omillari burg‘ilash ishlarini tashkillashtirishga bog‘liq bo‘limganligi uchun, ularni burg‘ilash davomida tuzatish mumkin emas. Bunday omillarga quyidagilar kiradi.

Burg‘ilash quvurlari tizmasini pastki qismi burg‘idan tushadigan yuklanmaga va kuchlar burg‘i ukiga perpendikulyar yo‘nalganligiga, kuchlarni qattiq qatlamdan yumshoq qatlamga o‘tishi va boshqa kuch bilan ta’sir qilishiga bog‘liqdir.

Umumiy holda egrilanish sabablari quyidagicha:

quduqlarni egrilanishi qatlama jinslarining geologik sharoitlariga;

quduqlarni egriligin yo‘nalishi burg‘ining qatlama jinsining uchrashish burchagi bilan aniqlanadi; quduqlardagi egrilanishini yana davom etishi egrilanish burchagiga, burg‘ilash quvuri tizmasi pastki uchini qattiqligiga bog‘liqdir.

quduqlarni egrilanish burchagi qatlamlarni tushish burchagidan katta bo‘lmasligi;

qatlamlarni tushish burchagi katta bo‘lganda, quduqlarni egrilanish burchagi qatlama tushish burchagidan kichiqdir.

Qiya quduqlarning profillari (tarektoriyasi) bir necha uchastkalardan iborat. Quduq profillari vertikal, egrilashtirilgan, to‘g‘ri qiyalashtirilgan uchastkalardan tashkil topgan. Quduq profilini tanlashda va hisoblashda uning chuqurligi, zaboyning zenit chizig‘idan uzoqligi, egrilanishning boshlanish chuqurligi e’tiborga olinadi.

Quduq profilini tanlashda parmalash quvurlar birikmasini, mustahkamlovchi quvurlarni, har xil quduq asboblarini to‘xtovsiz zaboya borib kelishi hisobi olinadi. Imkoniyatga qarab, egrilanish uchastkasini (shuningdek, egrilash radiusini) qisqartirishga harakat qilinadi. Quduq profilining hisobi zenit burchagi, vertikal va gorizontal proyeksiyadagi quduq uzunligi hamda egrilanish radiusini aniqlashdan iborat.

Quduq profili quyidagi talablarga javob berishi kerak:

Quduqning qiyalashish sut’ati $i < 1,5^\circ / 10 \text{ m}$.

Parmalash quvurlari orqali dolotoga berilayotgan yukning yetib borishi.

Quduqda tarnovlar paydo bo‘lmasligi.

Egilgan quvurlardagi kuchlanish oqim kuchlanish (σ_t) chegarasidan oshmasligi.

Turboburning to‘xtovsiz o‘tishi.

Ekspluatatsiyaga mo‘ljallangan quvurlarining shikastlanmasligi.

Ko‘rsatilgan talablarni qondirish maqsadida egrilanish radiusi aniqlanadi:

$$R = \frac{573}{l} v$$

bunda: l – egrilanish sur’ati, har 10 m da $1,5^\circ$ dan oshmachligi kerak.

Turbobur yoki vint dvigatelining to‘xtovsiz o‘tishi uchun egrilanish radiusi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$R \geq \frac{0,125 \cdot l^2}{0,75(D - d) - \delta}$$

bunda: l – dvigatel uzunligi, m;

D, d – doloto va dvigatel diametri, m;

δ – dvigatel va quduq devorlari orasidagi tirqish, m ($\delta=5\text{-}8 \text{ mm}$).

Profil uchastkalarining o‘lchamlarini aniqlash 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Uchastka	Uzunligi, m	Royeksiya, m	
		Gorizontal	Vertikal
Vertikal	$l_1 = h_1$	-	h_1
Egrilangan	$l_2 = 0.0174 Ra_1$	$a_1 = R(1 - \cos \alpha)$	$H_2 = R \sin \alpha$
Qiyalashgan	$l_{31} = h_3 / \cos \alpha$	$a_2 = h_3 \tan \alpha$	$H_3 = H - (h_1 + h_2)$

Umumiy	$L = l_1 + l_2 + l_3$	$a = a_1 + a_2$	$H = h_1 + h_2 + h_3$
--------	-----------------------	-----------------	-----------------------

7.3. Qiya yo‘naltirilgan quduq profilini hisobi.

1. Quduqni tiklik buyicha chukurligi $N = 1146$ m.
2. Maxsul dor katlamni usti qismini chukurligi $N_{u.k.ch} = 1098$ m.
3. Maxsul dor katlamni kalinligi $h = 48$ m.
4. Zenit burchakni kattaligi.
5. Ochish kattaligi xar 10 metrda $2 - 4^0$.

Xisob pastdan yukoriga karab olib boramiz. 1-rasmga muvofik ℓ_3 – kattalikni aniklaymiz.

1. Kurib chikaligan oralikda ℓ_3 – ni uzunligi quyidagi formul yordamida aniklanadi.

$$\ell_3 = 0,01745 \cdot R_2 (\alpha_{y.k.u} - \alpha_{\text{do}})$$

Bu yerda:

$$\alpha_{y.k.u} = \arctg \frac{A}{h_{kam}} = \arctg = \frac{100}{48} = \arctg 2,08 = 64^0$$

$$\text{Egrilanish radius } R_2 = \frac{573}{2} = 286,2 \text{ m}$$

$$\ell_3 = 0,01745 \cdot 286,2 (64^0 - 45^0) = 95 \text{ m}$$

2. Kiya stvolni ogish kattaligi.

$$a_3 = R_2 (\cos 45^0 - \cos 64^0) = 286 \cdot (0,707 - 0,438) = 76,9 \approx 77 \text{ m}$$

3. Stvol oraligini tiklik buyicha ogishi.

$$h_3 = R_2 (\sin 64^0 - \sin 45^0) = 286 (0,8988 - 0,7070) = 54,85 \approx 56 \text{ m}$$

4. Bu yerda 146 mm-li tizmani tiklik buyicha tushirish chukurligi.

$$H_{\max} = H - (h_{kam} + h_4) = 1146 - (48 + 56) = 1146 - 104 = 1042 \text{ m}$$

5. Oldindan stvolni tiklikdan ogishi a₂ – ni berilgan oralikda topamiz.

$$a_2 = A - (a_3 + a_1) = 100 - 77 = 23 \text{memp}$$

6. Shu oralikda quduq stvolini uzunligi.

$$\ell_2 = \frac{a_2}{\sin 45^\circ} = \frac{23}{0,707} = 325 \text{m}$$

7. Birinchi uchastkada zenit burchakni olishda quduqni profilini parametrlarini aniklaymiz.

$$\ell_1 = 0,01745 \cdot R_1 \alpha_{\text{боку}} .$$

$$R_1 = \frac{573}{4^0} = 143 \text{m} .$$

$$\ell_1 = 0,01745 \cdot 143 \cdot 45 = 122,0 \text{m} .$$

8. Tiklik buyicha stvol oraligini uzunligi.

$$h_1 = R_1 \cdot \sin 45^\circ = 143 \cdot 0,707 = 101 \text{m} .$$

9. Quduq stvolini boshlangich h₀ - egrilanish kattaligini topamiz.

$$h_0 = H - (h_{\text{kam}} + h_3 + h_2 + h_1) = 1146 - (48 + 56 + 77 + 101) = 1146 - 282 = 864 \text{m} .$$

10. Quduqni stvol buyicha chukurligi.

$$L = h_0 + \ell_1 + \ell_2 + \ell_3 = 864 + 122 + 32,5 = 1018 + 95 = 1113 \text{memp}$$

8-amaliy mashg'ulot. Quduqning burg'ilash rejimini tanlash va asoslashga doir misollar.

9-amaliy mashg'ulot. Rotorli va turbinali usullarda quduq tanasining yuvilishini gidravlik hisoblash.

9.1. Burg'ilash eritmalarini gidravlik hisoblari va quyqumlarni gidravlik yuvishdagi muammolar.

Gidravlik hisoblar odatda quyidagi holatlarda olib boriladi:

• Halqa oralig'ida bosimni gidravlik yo'qotilishini va sirkulyatsiyada burg'ilash eritmasini ekvivalent zichligini aniqlash.

- Burg'idagi kalta (nasadkani) quvurni optimal o'lchamini tanlash.
- Eritmani quduqdan parchalangan tog' jinslarini olib chiqish imkoniyatini baholash.

Har bir hisobni yaxshi olib borilishi berilgan ma'lumotlarni to'g'rilingiga bog'liqdir. Buni muhimligi shundaki, haroratli sharoitida va quduq ustida bosim mavjud bo'lganda burg'ilash eritmalarini reologik xossalalarini to'g'ridan-to'g'ri burg'ilash uchastkasida o'lhash kerak. Ammo bunday xossalarni hisoblarida gidravlik yo'qotilishni kattaligi oshirilganligi uchun olingan natija bosim zahirasini oshganligini ko'rsatadi.

Oqimni laminar yoki turbulent rejim ekanligiga eritmani zichligiga bog'liq bo'lib, gidravlik yo'qotilishga har xil darajada ta'sir qiladi. Oqim rejimi Reynoldsni (Re) moyoriy kattaligiga muvofiq aniqlanadi. Bu o'lchamsiz kattalik inersiya kuchini qovushqoqlik kuchiga nisbatiga teng. Nyuton suyuqliklarini Reynolds kriteriyasini quyidagi ifodadan aniqlash mumkin.

$$Re = \frac{\vartheta \cdot D \cdot \rho}{\mu};$$

bu yerda: ϑ - suyuqlik tezligi, m/s;

D – quvurni diametri, m;

ρ – suyuqlikni zichligi, kg/m³;

μ – qovushqoqlik, N · sek/m².

Bu ifoda nonyuton suyuqliklari uchun qovushqoqlik o'zgaruvchan bo'lganligi uchun har xildir. Ammo Re-ni nonyuton suyuqliklari uchun aniqlaydigan ifoda mayjud bo'lib, ishslash tartibi xuddi shundaydir.

Laminar oqim rejimidan turbulent oqim rejimiga o'tishda Re – 2300 boshlanadi va o'tish zonasini oqim to'liq turbulent bo'lguncha davom etadi.

Oqimni laminar rejimida bosimni yo'qotilish qiymati suyuqlik xossasini qovushqoqligiga kuchli bog'liqdir.

Reynolds kriteriyasi oqimni katta qiymatlarida inersion kuchga ega bo'ladi va bosimni yo'qotilishi oqimni tezligiga bog'liqdir. Namunaviy oqim rejimi sirkulyatsiyasi oraliqlarning har xil uchastkalarida quyidagicha bo'ladi:

- Yer usti tugunlarida – turbulent oqim;
- Burg'ilash quvurlarida – turbulent yoki laminar oqim;
- Og'irlashtirilgan burg'ilash quvurlarida – turbulent oqim;
- Burg'ini kalta quvurlarida – turbulent oqim;
- Quvur orqasi oralig'ida – laminar yoki o'tuvchi.

Reynolds kategoriyasini kattaligiga bog'liq holda aralashmani qovushqoqligi gidravlik qarshilik kattaligiga har xil darajada ta'sir qiladi.

Quyidagi 1-jadvalda nyuton suyuqliklari uchun tuzilgan ma'lumotlar nonyuton suyuqliklari uchun ham mos keladi.

5-jadval.

Tizimda quvurdagi oqim uchun aralashma parametrlarni bosimni yo'qotilishiga ta'siri				
Oqim rejimi	Oqim tezligi	Diametr	Qovushqoqlik	Quvurni g'adir-budurligi
Laminar	Q	1/D4	μ	Ta'mir qilmaydi.
Turbulent	Q1,8	1/D5	μ 0,3	G'adir-budurlik kuchayganda o'sadi.
Yuvuvchi kalta quvurlar	Q	-	Ta'sir qilmaydi.	-

Agarda suyuqliknin xossasi oddiy reologik modelga to'g'ri kelsa sifatli suyuqliklarni laminar oqimida geometrik o'lchamlari aniqlangan kanallarda bosimni yo'qotilishini yetarli aniqlikda hisoblash mumkin. Bosimni yo'qotilishini turbulent oqimga bog'liqligi empirik formulalar yordamida hisoblanadi. Bunday empirik bog'lanishlar nonyuton suyuqliklari uchun ham to'g'ri keladi. Nonyuton suyuqliklarini turbulent oqimlaridagi bosim yo'qotilishini aniqlaydigan bog'liqliklari olinadigan natijalarini to'liq aniqlay olmaydi.

Oqimni turbulentligiga qovushqoqlik va gidravlik qarshilikka nisbatan suyuqliknin sarfi va quvur devorini g'adir budurligi katta qarshilik kuchi bilan ta'sir qiladi. Burg'ilash quvurlarini va OBQ-ni diametrlari aniq bo'lganligi uchun, gidravlik bosimni yo'qotilish qiymatini aniqlash mumkin. Burg'ini nasadka quvurchalaridagi bosimni yo'qotilishi qovushqoqlikka bog'liq emas. Halqa oralig'ini fazosida gidravlik yo'qotilishlar qiymatini eng kichik aniqlikda hisoblash mumkin.

- Laminar oqim rejimida gidravlik yo‘qotilish qovushqoqlikni kattaligiga kuchli bog‘liqdir.
- Qovushqoqlik kattaligini haroratga va bosimga bog‘liqligi aniq o‘rnatilmagan.
- Quduq devorida kovakliklarni mavjud bo‘lganligi tufayli quduqni stvolini geometriyasi aniq emas.

Oraliqlarni oqimini sirkulyatsiyasini gidravlik yo‘qotilish qiymatini namunaviy taqsimlanishi %-larda quyidagicha:

- Yer usti tizimlarida (nasos, shlang, vertlyug, kvadratda 3-5%).
- Burg‘ilash tizmasida 30-40%.
- Burg‘ini kalta quvurlarida 50-60%.
- Halqa quvurlarida 5-10%.

Halqa oralig‘i fazosida gidravlik yo‘qotilishni hisoblarida ko‘pgina noaniqliklar mavjud. Preston Moor tomonidan bu yo‘qotilishlarni stoyakdagi bosim bilan sirkulyatsiya yo‘li traktini qolgan hamma elementlaridagi umumiy hisobiy bosimni yo‘qotilishini farqi orqali aniqlash mumkin.

9.2.Burg‘ilashda kuduk tanasi yuvilishining gidravlik dasturini ishlab chikish

6-jadval

Kursat-kichlar	Xisoblash uchun variantlar									
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
L, m	3100	3000	3050	3200	3250	3300	3350	3400	3450	3500
$\rho_b \cdot e$, g/sm ³	1,30	1,25	1,32	1,35	1,37	1,27	1,30	1,25	1,32	1,35
db.k, mm	140	140	127	127	140	127	114	114	140	114
δ , mm	9	8	9	8	9	9	9	8	9	9
Db, mm	190	190	190	172	190	172	190	172	190	172
lobk, m	120	110	100	120	130	140	150	110	100	120
dobk, mm	146	146	146	146	146	146	146	146	146	146
Q, dm ³ /s	20	30	25	20	19	18	23	22	18	20
$\eta \cdot 10^{-2}$ N·s/m ²	1,0	1,1	1,2	1,3	1,0	1,1	1,2	1,05	1,1	1,0
τ_0 , N/m ²	8,16	8,15	8,14	8,17	8,18	8,16	8,15	8,17	8,14	8,18
Turbobur	T12M3 – 170					TS4A - 170				

7-jadval

Kursatkichlar	Ko‘rsatgichlar qiymati	Ko‘rchatgichlarning nomi
L, m	3100	kuduk chukurligi
$\rho_b \cdot e$, g/sm ³	1,90	burg‘ilash eritmasining zichligi
db.k, mm	140	burg‘ilash quvurlarining diametri
δ , mm	9	burg‘ilash quvurlari devorining kalinligi
Db, mm	190	burg‘i diametri
lobk, m	120	ogirlashtirilgan burg‘ilash quvurlari (OBK) uzunligi
dobk, mm	146	OBK diametri
Q, dm ³ /s	20	burg‘ilash eritmasining sarfi
$\eta \cdot 10^{-2}$ N·s/m ²	1,0	eritmaning strukturaviy kovushkokligi
τ_0 , N/m ²	8,16	dinamik kuchlanishli siljish
Turbobur	T12 M3 170	

Yechilishi (1-variant).

Kudukni tanasini yuvishning gidravlik dasturini ishlab chikish burg‘ilash eritmasi xarakatlanadigan xar bir sirkulyatsion tizim elementidagi yo‘qotilgan bosim mikdorini va bosim yo‘qotilish

koeffitsiyentini aniqlash orkali amalga oshiriladi. Boshkacha kilib aytganda, bu xisoblash jarayonini kuduk tanasini gidravlik xisoblash deyish xam mumkin.

9.3. Burg‘ilash quvurlarida bosim yo‘qotilishini aniqlash.

Yuvish eritmasining burg‘ilash quvurlarida okish rejimini aniklaymiz:

$$Re = \frac{10\rho_{\text{gas}} g_k d}{g \left(\eta + \frac{\tau_0 d}{6g_k} \right)} \quad (1)$$

bu yerda: $\rho_{\text{gas}} = 1300 \text{ kg/m}^3$ – burg‘ilash eritmasining zichligi;
- quvurlarda eritmaning urtacha okish tezligi.

$$g_k = \frac{4Q}{\pi d^2} \quad (2)$$

bunda: $Q = 30 \text{ дм}^3/\text{с}$ ($0,03 \text{ м}^3/\text{с}$) – burg‘ilash eritmasining sarfi;
 $d = 140 - 2 \cdot 9 = 122 \text{ mm} = 0,122 \text{ м}$ – burg‘ilash quvurlarining ichki diametri.

$$g_k = \frac{4 \cdot 0,02}{3,14 \cdot 0,122^2} = 1,71 \text{ м/с} \quad (3)$$

$g = 9,81 \text{ м/с}^2$ – erkin tushish tezlanishi.

Masala shartlaridagi kiymatlarni quyib, quyidagiga ega bulamiz:

$$Re = \frac{10 \cdot 1900 \cdot 1,71 \cdot 0,122}{9,81 \cdot \left(1 \cdot 10^{-2} + \frac{8,16 \cdot 0,122}{6 \cdot 2,56} \right)} = 5400. \quad (4)$$

Demak, okish rejimi – turbulent.

Eslatma. Reynoldsning keng tarkalgan kriteriysi $Re \leq 2300$ bulsa, okish rejimi – laminar,
 $Re \geq 2300$ bulsa – turbulent xisoblanadi.

Burg‘ilash quvurlaridagi bosim yo‘qotishlarini quyidagi formula buyicha aniklaymiz:

$$p_{\text{gas}} = 8,26 \lambda_k \frac{Q^2 (L - l_0)}{d^5} \rho_{\text{gas}}$$

bu yerda: $L = 3600 \text{ м}$ – kuduk chukurligi;

$l_0 = 100 \text{ м}$ – OBK uzunligi;

λ_k – quvur gidravlik karshiliklarining ulchamsiz koeffitsiyenti.

Turbulent rejimda λ_k quyidagicha aniklanadi.

$$\lambda_k = 0,08 / \sqrt[7]{\text{Re}} = 0,08 / \sqrt[7]{5400} = 0,024$$

laminar rejimda esa

$$\lambda_k = 64 / \text{Re}$$

Eslatma. B.S. Filatov turbulent rejimda eritmadi kattik fazaning mikdoriga boglik xolda zichligi $\rho b.e = 1,15 \div 1,25 \text{ g/sm}^3$ bulgan gilli eritmalar uchun $\lambda_k = 0,018 \div 0,020$; ogirlashtirilgan burg'lash eritmalar uchun $\lambda_k = 0,017 \div 0,018$; kam zichlikli eritmalar uchun $\lambda_k = 0,020 \div 0,025$ deb kabul kilishni tavsiya etgan.

Yukorida keltirilgan kiyatlarni quyib,

$$p_{\delta,k} = 8,26 \cdot 0,024 \cdot \frac{20^2 \cdot (3600 - 100)}{12,2^5} \cdot 1,9 = 1,78 MPa$$

ga ega bulamiz.

Burg'lash quvurlarida bosim yo'qotilish koeffitsiyenti quyidagiga teng:

$$\alpha_{\delta,k} = \frac{8,26 \lambda_k}{d^5} = \frac{8,26 \cdot 0,024}{12,2^5} = 7,3 \cdot 10^{-8}$$

9.4. Xalkasimon muxitdagagi bosim yo'qotishlarini aniqlash.

Burg'lash eritmasining xalkasimon muxitdagagi okish rejimini aniklaymiz.

$$\text{Re} = \frac{10 \cdot \rho_{\delta,x} \vartheta_{x,M} (D_\delta - d_{\delta,k})}{g \left(\eta + \tau_0 \frac{D_\delta - d_{\delta,k}}{6 \vartheta_{x,M}} \right)}$$

bu yerda: $\vartheta_{x,M}$ - eritmaning xalkasimon muxitdagagi urtacha okish tezligi

$$\vartheta_{x,M} = \frac{4Q}{\pi (D_\delta^2 - d_{\delta,k}^2)}$$

$D_b = 0,1905 \text{ m}$ – burg'i diametri; $d_b = 0,140 \text{ m}$ – burg'lash quvurlarining tashki diametri; $Q = 0,02 \text{ m}^3/\text{s}$ – burg'lash eritmasining sarfi.

$$\vartheta_{x,M} = \frac{4 \cdot 0,02}{3,14 \cdot (0,1905^2 - 0,140^2)} = 1,52 \text{ m/c}$$

Masala shartidagi berilganlarni quyib, quyidagiga ega bulamiz:

$$\text{Re} = \frac{10 \cdot 1900 \cdot 1,52 \cdot (0,1905 - 0,140)}{9,81 \cdot \left(1 \cdot 10^{-2} + 8,16 \cdot \frac{0,1905 - 0,140}{6 \cdot 1,52} \right)} = \frac{1458,4}{0,54} = 2700$$

ya'ni okish turbulent rejimda.

Xalkasimon muxitdagagi bosim yo'qotilishi quyidagi formula buyicha aniklanadi:

$$\rho_{x.m} = 82,6 \lambda_{x.m} \rho_{\delta.e} \frac{Q^2(L-l_0)}{(D_\delta - d_{\delta.k})^3 (D_\delta + d_{\delta.k})^2}$$

bu yerda: $\lambda_{x.m}$ – xalkasimon muxitning gidravlik karshilik koeffitsiyenti; laminar okish rejimida $\lambda_{x.m}$ quyidagicha aniklanadi:

$$\lambda_{x.m} = 80 / \text{Re}$$

turbulent rejimda

$$\lambda_{x.m} = 0,12 \sqrt[7]{\text{Re}} = 0,12 \sqrt[7]{2700} = 0,039$$

kvadratik ishkalanish soxasida .

Kiymatlarni quyib, quyidagiga ega bulamiz:

$$\rho_{x.m} = 8,26 \cdot 0,035 \cdot 1,9 \cdot \frac{20^2 \cdot (3600 - 100)}{(19,05 - 14,0)^3 \cdot (19,05 + 14,0)^2} = \frac{769005}{(5,05)^3 \cdot (33,05)^2} = \frac{769005}{128,78 \cdot 1092,3} = 5,46 M\text{Pa}$$

Xalkasimon muxitdagagi bosim yo‘qotilish koeffitsiyenti

$$\alpha_{x.m} = \frac{8,26 \lambda_{x.m}}{(D_\delta - d_{\delta.k})^3 (D_\delta + d_{\delta.k})^2} = \frac{8,26 \cdot 0,039}{(19,05 - 14)^3 \cdot (19,05 + 14)^2} = 2,29 \cdot 10^{-6}$$

10-amaliy mashg‘ulot. Rotorli va turbinali usullarda quduq tanasining yuvilishini gidravlik hisobi.

10.1. Ogirlashtirilgan burg‘ilash quvurlari (OBK) dagi bosim yo‘qotilishlarini aniqlash

Bu yo‘qotishlarni ekvivalent uzunliklar usulida aniqlash ancha kulay:

$$l_{\vartheta.o} = l_o d^5 / d_o^5$$

бу ерда: $l_o=120$ м – ОБК ни узунлиги; $d=12,2$ см – бурғилаш қувурларининг ички диаметри; $d_o=7,5$ см – оғирлаштирилган қувурларнинг ички диаметри.

$$l_{\vartheta,o} = 100 \cdot 12,2^5 / 7,5^5 = 1139 \text{ м}.$$

Ogirlashtirilgan burg'ilash quvurlaridagi bosim yo'qotilishi quyidagi formula buyicha xisoblanadi:

$$p_o = 8,26 \lambda_k \frac{Q^2 \cdot l_{\vartheta,o}}{d^5} \rho_{\delta,\vartheta}$$

бу yerda: $\lambda_k=0,0257$ – quvur gidravlik karshiliklarining ulchamsiz koeffitsiyenti.

$$p_{o\bar{o}\kappa} = 8,26 \cdot 0,0240 \cdot \frac{20^2 \cdot 1139}{12,2^5} \cdot 1,9 = 0,634 \text{ MPa}$$

OBK dagi bosim yo'qotilish koeffitsiyenti quyidagiga teng:

$$\alpha_{o\bar{o}\kappa} = \frac{8,26 \lambda_k l_{\vartheta,o}}{d^5 l_o}$$

$$\alpha_{o\bar{o}\kappa} = \frac{8,26 \cdot 0,0240 \cdot 1139}{12,2^5 \cdot 100} = 8,35 \cdot 10^{-6}.$$

Eslatma. OBK dagi bosim yo'qotilishlarini burg'ilash quvurlaridagi kabi aniqlash xam mumkin. Bunda $d=do$ deb olish lozim.

10.2. Burg'ilash qulflaridagi bosim yo'qotilishlarini aniqlash

Qulfli boglanishlardagi bosim yo'qotilishlarini maxalliy karshiliklarning ekvivalent uzunligi buyicha aniqlash mumkin:

$$p_k = 8,26 \lambda_{\vartheta,k} \frac{LQ^2}{l_k d^5} \rho_{\delta,\vartheta}$$

бу yerda: $l_k=k d$ – qulfli boglanishning ekvivalent uzunligi, м; k quvurlarning ichki diametri ulushlarida ifodalangan ekvivalent uzunlik; L – burg'ilash quvurlari birikmasining uzunligi, м; l_k – qulflar orasidagi urtacha masofa, м.

61-jadval [1] da berilganlarga asosan $k=28,8$. U xolda

$$l_{\vartheta,k} = 28,8 \cdot 0,122 = 3,5 \text{ м}$$

$L=3500$ м; $l_k=12$ м; $d=12,2$ см; $Q=20$ дм³/с; $\rho_{\delta,\vartheta}=1,9$ г/см³ кийматларни қуиб, эга буламиз:

$$p_k = 8,26 \cdot 0,0257 \cdot 3,5 \cdot \frac{3500 \cdot 20^2}{12 \cdot 12,2^5} \cdot 1,9 = 0,56 \text{ MPa}$$

Burg'ilash qulflaridagi bosim yo'qotilish koeffitsiyentini aniklaymiz:

$$\alpha_{\kappa} = \frac{8,26 \lambda_{\kappa} l_{\vartheta,\kappa}}{l_{\kappa} d^5} = \frac{8,26 \cdot 0,0240 \cdot 3,5}{12 \cdot 12,2^5} = 21.38 \cdot 10^{-8}$$

10.3. Burg‘ining yuvish teshiklarida bosim yo‘qotilishlarini aniqlash

Bu yo‘qotilishlarni amaliy xisoblashlar uchun yetarlicha aniklikda quyidagi formula buyicha aniqlash mumkin:

$$p_{\delta} = \frac{0,12}{F^2} \rho_{\delta,\vartheta} Q^2$$

bu yerda: F – burg‘ini yuvish teshiklarining umumiy kesim yuzasi ($F=10 \text{ sm}^2$).

$$p_{\delta} = \frac{0,12}{10^2} \cdot 1,9 \cdot 20^2 = 0,912 M\pi a .$$

Burg‘idagi bosim yo‘qotilish koeffitsiyenti

$$\alpha_{\delta} = 0,12 / F^2 = 0,12 / 10^2 = 12 \cdot 10^{-4}$$

10.4. Burg‘ilash uskunasining manifoldida bosim yo‘qotilishlarini aniqlash

Manifold elementlari (boshkaruvchi quvur, vertlyug, burg‘ilash shlangi, yetkazuvchi quvurlar) dagi bosim yo‘qotilishlarini xam ekvivalent uzunliklar usuli bilan aniqlash kulaydir. Buning uchun avval boshkaruvchi quvur (kvadrat) ning ekvivalent uzunligini topamiz:

$$l_{\vartheta,\delta,\kappa} = l_{\delta,\kappa} d^5 / d_{\delta,\kappa}^5$$

bu yerda: lb.k – boshkaruvchi quvurning xakikiy uzunligi. 63-jadval [1] ga asosan 168 mm diametrli boshkaruvchi quvurning uzunligi 14 m; d – burg‘ilash quvurlarining ichki diametri; db.k – boshkaruvchi quvurning ichki diametri. 63-jadval [1] ga asosan db.k=100 mm.

$$l_{\vartheta,\delta,\kappa} = 14 \cdot 0,122^5 / 0,1^5 = 7,8 M .$$

Vertlyugning ekvivalent uzunligini topamiz

$$l_{\vartheta,\delta} = l_{\delta} d^5 / d_{\delta}^5$$

bunda: lv – vertlyug tanasining xakikiy uzunligi. Amaliy xisoblashlar uchun lv=2 m deb kabul kilish mumkin; dv – vertlyugni eritma utuvchi ichki teshigining diametri. 64-jadval [1] ga asosan, dv=100 mm.

$$l_{\vartheta,\delta} = 2 \cdot 0,122^5 / 0,1^5 = 5,4 M .$$

Burg‘ilash shlangining ekvivalent uzunligini aniklaymiz

$$l_{\vartheta,\delta,m} = l_m d^5 / d_m^5$$

bunda: - burg‘ilash shlangining xakikiy uzunligi (amaliy xisoblashlar uchun \square deb olish mumkin); - shlangning ichki diametri.

64-jadval [1] ma’lumotlari buyicha, \square .

$$l_{\vartheta,\delta,m} = 20 \cdot 0,122^5 / 0,102^5 = 53m.$$

Eritmani nasosdan kudukka yetkazuvchi quvurlarning ekvivalent uzunligini topamiz. Yetkazuvchi quvurlar (stoyak, ya’ni minoraga tik urnatilgan quvur bilan birga) 140 mm diametrli burg‘ilash quvurlaridan yigilgan bulib, ularning ichki diametri 122 mm, uzunligi lv.k=100 m. Manifold elementlarining umumiyligini tekshirish uchun:

$$l_{\vartheta,m} = l_{\vartheta,\delta,\kappa} + l_{\vartheta,\delta} + l_{\vartheta,\delta,m} + l_{c,\kappa} = 37,8 + 5,4 + 53 + 100 = 196m$$

Manifolddagagi umumiyligini tekshirish uchun quyidagi formula buyicha aniklanadi:

$$p_m = 8,26 \lambda_k \frac{Q^2 l_{\vartheta,m}}{d^5} \rho_{\delta,\vartheta}$$

bu yerda: $d=12,2$ sm – burg‘ilash quvurlarining ichki diametri.

$$p_m = 8,26 \cdot 0,0240 \cdot \frac{20^2 \cdot 196}{12,2^5} \cdot 1,9 = 0,514 MPa.$$

10.5. Turboburdagi bosim yo‘qotilishlarini aniqlash

Turboburda yo‘qotiladigan bosim mikdori uning yukori kismidagi yo‘qotilgan bosim va berilgan eritma sarfida turboburdagi bosimlar farki yigindisidan iborat, ya’ni:

$$\begin{aligned} p_{myp\delta} &= p_{\vartheta,m} + p_m \\ p_{\vartheta,m} &= \alpha_{\vartheta,m} p_{\delta,\vartheta} Q^2 \end{aligned}$$

bu yerda: $\alpha_{\vartheta,m}$ - turbobur jixozlarining yukori kismidagi bosim yo‘qotilish koeffitsiyenti. T12M3-170 turdagisi turbobur uchun $\alpha_{\vartheta,m}=56,0 \cdot 10^{-5}$ (TS4A-170 turboburi uchun xam $\alpha_{\vartheta,m}=56,0 \cdot 10^{-5}$)

$$\begin{aligned} \rho_{\vartheta,m} &= 56,0 \cdot 10^{-5} \cdot 1,9 \cdot 20^2 = 0,425 MPa \\ \rho_m &= A_p \rho_{\delta,\vartheta} Q^2 \end{aligned} \quad (71)$$

bunda: A_p – turboburdagi bosimning pasayish koeffitsiyenti.

$$A_p = \frac{p_m}{\rho_{\delta,\vartheta} Q^2} = \frac{5,5}{1,9 \cdot 30^2} = 32,1 \cdot 10^{-4}. \quad (72)$$

Bu yerda: r_m – maksimal Q_1 eritma sarfida turboburda bosimning pasayishi, dm³/s. 66-jadval [1] ga asosan, $Q_1=30$ dm³/s da $r_m=5,5$ MPa.

U xolda

$$p_m = 32,1 \cdot 10^{-4} \cdot 1,9 \cdot 20^2 = 2,44 MPa;$$

$$p_{mvp\delta} = 0,425 + 2,44 = 2,865 \text{ MPa}.$$

Shunday kilib, turbinali va rotorli burg‘ilash usullarida chukurligi 3100 m bulgan kudukning sirkulyatsion tizimida yo‘qotiladigan umumiy bosim mikdori quyidagiga teng:

$$p = p_{\delta..k} + p_{x..M} + p_{o\delta k} + p_k + p_\delta + p_M + p_{mvp\delta};$$

$$p = 1,78 + 5,46 + 0,634 + 0,56 + 0,912 + 0,514 + 2,865 = 12,725 \text{ MPa}$$

8-jadval.

№	Burg‘ilash jamlanmasining tarkibiy elementlari	R, MPa	Bosim yo‘qotilishini % da ifodalanishi
1	Burg‘ilash quvurlaridagi bosimni yo‘qotilishi	1.78	13.99
2	Halqasimon muhitdagi bosimni yo‘qotilishi	5.46	42.90
3	Og‘irlashtirilgan burg‘ilash quvurlaridagi bosimni yo‘qotilishi	0.634	4.98
4	Burg‘ilash qulflaridagi bosimni yo‘qotilishi	0.56	4.40
5	Burg‘ining yuvish teshiklaridagi bosimni yo‘qotilishi	0.912	7.17
6	Monifolddagi bosimni yo‘qotilishi	0.514	4.04
7	Turboburdagi bosimni yo‘qotilishi	2.865	22.52
	Umumiy bosimni yo‘qotilish qiymati	12.725	100 %

Xulosa

Quduqlarni burg‘ilash jarayonidagi burg‘ilash eritmasining sirkulyatsiya harakatidan ko‘rinib turibdi, asosan bosimni katta qiymatda yo‘qotilishi halqa muhitida sodir bo‘ladi. Undan keyin esa turboburda va burg‘ilash quvurlarida sodir bo‘ladi. Burg‘ilash quvurlarida bosimni yo‘qotilishiga asosan burg‘ilash jamlanmasining uzunligi katta bo‘lganligi hamda quyqumlarni quvurni ichki va tashqi devorlariga yopishib qolishidir. Burg‘ilash eritmasini quduqda yaxshi yuvilishini ta’minlash uchun turbulent rejimiga rioya qilinishi kerak.

11-amaliy mashg‘ulot. Burg‘ilashdagi qiyinchiliklar va halokatlarni bartaraf etishga doir misol va masalalar

11.1. Burg‘ilashda uchraydigan mushkulotlar va avariyalar bilan kurashish tavsiyalari.

Quduq ustunida qatlam bosimidan gidrostatik bosimni oshib ketishi natijasida burg‘ilashda burg‘ilash aralashmalarini yutilishi sodir bo‘ladi. Agarda qatlAMDAGI bosim quduq ustunidagi bosimidan yuqori bo‘lsa, neft, suv va gaz qatlamdan quduqqa kirib keladi va portlash sodir bo‘lishi mumkin.

Burg‘ilash aralashmalarini yutilishida quduq ustunida gidrostatik bosimni tushib ketishi va ustuni yuqori qismini ochilib qolishi natijasida quduq ustuni zonasida gazneft va suvni otilishi uchun qulay sharoit paydo bo‘ladi. Bunday holatni natijasida burg‘ilash tizmalarini qisilib va to‘xtab qolishi; gaz, neft va suvni otilishi sodir bo‘ladi.

Gazneft paydo bo‘lishini oldini olish talablaridan biri bu burg‘ilash aralashmalarini zichligi yetarli darajada bo‘lishi kerak.

Burg‘ilash tizmalarini qisilib va yopishib qolishini oldini olish choralaridan biri bu quduq ustunini yuqori sifatli kolloidli qaysiki zich, yuka va yopishmaydigan filtratsiya qatlama hosil qiladigan aralashmalardan foydalanishdir.

Filtratsiya qatlami yopishqoqligini pasaytirish uchun burg‘ilash aralashmalariga maxsus moylovchi qo‘shimchalar qo‘shiladi. Masalan SMAD-1, grafit, neft, sulfonol, sirt aktiv moddalar, gudron va hakoza.

Burg‘ilash quvurlarini qisqarish, shlam�arni o‘tirishiga va og‘irlashtirgichlarga qarshi burg‘ilash aralashmalariga filtratsiya ko‘rsatgichi uncha katta bo‘limgan barqarorlashgan tuzilmalar kiritish kerak. Qovushqoqlik va statik siljish kuchlanishni minimal holatda ushlab turish maqsadga muvofiqdir.

11.2. Burg‘ilash tizmalarini qisilib qolgan qismini aniqlash.

1-masala: Quyidagi holatlarda burg‘ilash tizmasining qisilib qolgan uzunligi aniqlansin. Kranblokdagi ko‘taruvchi arqonlarni jihozlanishi 4×5 . quduqning chuqurligi $N=2500$ metr bo‘lib $\varnothing=142$ mm-li, qalinligi $\delta=9$ mm-li burg‘ilash quvurida qisilib qolish sodir bo‘lgan. Burg‘ilash quvurlari tizmasi umumiy 55 bo‘limdan, tal tizmasiga hamma osilgan bo‘limlar 5-bo‘limdan, burg‘ilash quvuri tizmasini indikator tarozi bo‘yicha xususiy og‘irligi 50-bo‘linmadan iborat. R1-cho‘zilish 60-chi bo‘linmada, R2-cho‘zilish 70-chi bo‘linmada o‘tkazildi. Burg‘ilash tizmalarini cho‘zilish farqi $\Delta l=15$ sm.

Yechish: Birinchidan indikator tarozi asbobini ko‘rsatgichi bo‘yicha bitta bo‘linmani bahosini aniqlaymiz (KN). Diametri $\varnothing=28$ mm po‘lat arqonning bir tomonidagi zo‘riqishi 1-jadval bo‘yicha, 60 ta bo‘linishda 66,5 kn-ni, 70 ta bo‘linishda 78,5 kn tashkil etadi. Shunday qilib bitta bo‘linishni bahosi $(78,5-66,5)/10=1,20$ kn-ga teng.

Indikator tarozisining ko‘rsatgichlari.

9-jadval

Asbobning ko‘rsatgichlari	Tal arqonning bir uchidagi zo‘riqish, kN		Chet chiqish, kN	
	Vernyer bilan	Vernyersiz	Vernyer bilan	Vernyersiz
10	5,0	5,0	0	0
20	18,15	17,50	1,40	1,0

30	30,50	28,50	1,75	1,30
40	41,65	40,15	1,9	1,9
50	54,15	52,25	1,90	2,50
60	66,50	63,90	1,75	1,65
70	78,5	75,65	2,25	1,90
80	92,4	88,50	1,90	1,75
90	106,4	101,75	1,65	1,80
100	121,4	116,00	0	0

Burg‘ilash tizmasining qisilib qolmagan qismini uzunligi quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$L_{\text{кис}} = (1,05 EF \Delta l) / (P_2 - P_1)$$

Bu yerda: Lqis – burg‘ilash quvurining qisib qolgan joy chuqurligi, sm;
 $E=2,1 \cdot 104$ kN/sm² – burg‘ilash quvuri po‘latining elastiklik moduli;
 $F=38,7$ sm² – qalinligi $\delta=9$ mm, diametri $\varnothing=140$ mm-li burg‘ilash quvurini tanasini ko‘ndalang kesim yuzasi;
 R_1 va R_2 – burg‘ilash quvurini cho‘zish uchun hosil qilinadigan yuklanma, kN.

$$P_2 - P_1 = 70_{\text{бўл}} - 60_{\text{бўл}} = 10_{\text{бўл}}.$$

Shunday qilib tortishlarni farqi $1,20 \cdot 10 \cdot 8 = 96$ kN. Tizmani cho‘zilish $\Delta l=15$ sm ekanligini e’tiborga olgan holda.

$$L_{\text{кис}} = (1,05 \cdot 2,1 \cdot 10^4 \cdot 38,7 \cdot 15) / 196 = 133000 = 1300 \text{ м.}$$

11.3. Neft vannani hisobi.

2-masala: Mezon maydonini burg‘ilash jarayonida $2050 \div 2125$ metr oraliqlarida qisilib qolish xavfi bo‘lganligi uchun neft vannasini hajmini hisoblaymiz. Diametri $\varnothing=140$ mm, qalinligi $\delta=9$ mm, quduq chuqurligi $N=2125$ metr, burg‘i diametri $D_b=295,3$ mm, qisilmagan qismi uzunligi $L_{\text{qis}}=2050$ metr, burg‘ilash aralashmasini zichligi $\rho_b \cdot a=1,25 \text{ g/sm}^2$ bo‘lgan holatda qisilib qolgan tizmani bo‘shatish uchun talab qilingan neftli vanna hisoblansin. Neftni zichligi $\rho_n=0,8 \text{ g/sm}^2$.

Yechish: Vanna uchun kerakli bo‘lgan neftni miqdorini aniqlaymiz.

$$V_n = 0,785 (D_{ky\delta}^2 - D^2) H_1 + 0,875 d^2 H_2$$

Dqud - quduqlarni burg‘ilash davomida paydo bo‘ladigan kovak yoriq va boshqalarni hisobga oluvchi koeffitsiyent ($k=1,05-1,30$).

$D=0,140 \text{ m}$ burg‘ilash quvurining tashqi diametri;

N_4 – quvur orqa tarafidan neftni ko‘tarilishi balandligi. Neft qisilish joyidan 50-100 m balandlikka ko‘tariladi.

$$H_1 = H - L_{\text{кис}} + (50 \div 100) = 2300 - 2000 + 100 = 400 \text{ м.}$$

d-burg‘ilash quvurining ichki diametri, м.

$$d = D - 2\delta = 140 - 2 \cdot 8 = 124 \text{ мм} = 0,124 \text{ м}$$

$\delta = 8 \text{ mm}$ burg‘ilash quvurini qalinligi.

N2 – quvur orqa tarafiga davriy ravishda neftni haydash natijasida quvur ustunidagi neft balandligi.

N2 = 200 м qabul qilamiz.

$$V_h = 0,785(0,354^2 - 0,14^2)275 + 0,785 \cdot 0,124^2 \cdot 200 = 16,92 \approx 17 \text{ м}^3$$

Neftni haydash uchun zarur bo‘lgan burg‘ilash aralashmasini miqdori.

$$V_{\delta,a} = \frac{\rho d^2}{4} (H - H_2) = \frac{3,14 \cdot 0,124^2}{4} (2125 - 200) = 23,72 \approx 24,0$$

Burg‘ilash quvuri orqasida burg‘ilash aralashmasi va quvur neft bilan to‘ldirilganda kerakli bo‘lgan neftni haydashdagi maksimal bosimni aniqlaymiz. $\rho = \rho_1 + \rho_2$. ρ_1 – ustunidagi suyuqliklarni zichligi farqi natijasida paydo bo‘ladigan bosimlarni farqi (quvurlarda va quvur orqasida).

$$\rho_1 = \frac{H(\rho_{\delta,a} - \rho_h)}{100} = \frac{2300(1,25 - 0,8)}{100} = 9,56 \text{ МПа}$$

ρ_2 – gidrostatik yo‘qolishini yengish uchun sarflanadigan bosim.

$$\rho_2 = 0,001 \cdot H \cdot 0,8 = 0,001 \cdot 2125 \cdot 0,8 = 3,1 \text{ МПа.}$$

Bunda: $\rho = 10,3 + 3,1 \text{ MPa.}$

Neft vannasi quvvati N=120 kVt. SA-300 agregati yordamida amalga oshiriladi. Unda nasosni uzatishi

$$Q = 10,2\eta N / 10\rho = 10,2 \cdot 0,635 \cdot 120 / 10 \cdot 13,4 = 5,8 \text{ дм}^3/\text{с.}$$

Bu yerda: $\eta = 0,635$ SA-300 agregatining foydali ish koeffitsiyenti.

11.4. Quduq tubidagi burg‘ilash aralashmasini bosimini aniqlash.

3-masala: Quduq chiqqurligi N=4000 м, burg‘ilash aralashmasini zichligi $\rho_b a = 1,25 \text{ g/sm}^3$, aralashmani statiq siljish kuchlanishi $\theta = 0,004 \text{ n/sm}^2$ yoki 40 kN/m^2 , quduq diametri $D_{qud} = 200 \text{ mm}$ bo‘lganda quduq tubidagi burg‘ilash aralashmasining gidrostatik bosimi aniqlansin.

Yechish: Quduq tubidagi burg‘ilash aralashmasini bosimi quyidagi formula yordamida aniklanadi.

$$\rho = \rho_0 + H\rho_{\delta,a}/100 \pm P_{tyz}.$$

Bu yerda: ρ_0 – burg‘ilash aralashmasini erkin yuzadagi bosimi (quduq usti qismi halqa fazasidagi).

Bu bosim quduq orqa germetik moslamalar yoki quduqni to‘liq yopish yoki priventor qisman bekitilganda chiqqan burg‘ilash aralashmalaridan paydo bo‘lgan bosim.

Bizning holatda aralashma quduqdan erkin chiqqanligi uchun $\rho_0 = 0$ ga teng, R_s – bosim, burg‘ilash aralashmasini tuzilmasi hosil bo‘lganda quduq tubida paydo bo‘ladigan bosim.

Quduqqa aralashma oqimi sekin haydalganda, quduq tubida bosim sekin asta oshsa, oqimni boshlanishida rs – bosimni musbat qiymati bilan olinadi.

Quduqni pastki qismiga suvni sekin flrlanishi sodir bo‘lsa, quduq ustunidagi sath o‘zgarmas bo‘lsa, rs – bosim manfiy qiymatga qabul kilinadi.

Agar quduq suv bilan to‘ldirilgan bo‘lsa, bunda rs=0. rs – qiymati quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$\rho_c = \frac{40H}{D_{\text{kyd}}} = \frac{4 \cdot 40 \cdot 4000}{0,20} = \frac{640000}{0,2} = 3,2M\pi a$$

r-ni qiymatini musbat olamiz.

$$p = \frac{1,25 \cdot 4000}{100} + 3,2 = 50,0 + 3,2 = 53,2M\pi a$$

11.5. Qatlamni yutilish koeffitsiyent qiymatini aniqlash.

4-masala: Quduqni Nqud=90 metr chuqurligida, nasos Q=110 m³/soat (30,6 dm³/s) qiymatda o‘zgarganda dinamik sath Nd=81 metrda, qatlamni yutilish koeffitsiyenti imkoniyati aniqlansin.

Yechish: To‘liq yutilishda qatlamni yutilish koeffitsiyenti imkoniyati quyidagi formuladan topiladi.

$$K = \frac{Q_{\text{hom}}}{\sqrt{H100}}$$

Bu yerda: Qyut – yutilish jadalligi, m³/soat.

N-bosim, MPa-qaysiki nasos Q-qiymatda uzatganda statik va dinamik bosimlar farqi.

$$H = (H_{\text{cm}} - H_{\text{dun}})/100 = (97 - 81)/100 = 0,16M\pi a$$

$$K = \frac{110}{\sqrt{0,16 \cdot 100}} = 27,5$$

Ma’lumki, K>25 bo‘lganda yutilish zonasini bartaraf etish uchun oraliq tizmasini tushirish yoki sirkulyatsiyasiz burg‘ilash kerak.

2-jadvalda yutilish zonalarini bartaraf etish ma’lumotlari keltirilgan.

9-jadval

Yutilish zonası	Yutilish koeffitsiyent imkoniyati, K	Yutilishni bartaraf etish tadbirleri
I	1	Burg‘ilash aralashmasini qo‘llab burg‘ilashni davom ettirish.
II	1-3	Tez qotuvchi BSS aralashmasini haydash, sement sarfi 5-

		10 t.
III	1-5	BSS haydash sement sarfi 10-20 t.
IV	3-15	Tarkibiga bentonitli kukun, loyli va loyli sementli aralashma qo'shib yuqori qovushqoqlikli BSS-haydash. Aralashma sarfi 20-60 t.
V	15-26	BSS-haydash oldin, quduqni yutilishini kamaytirish uchun qum yuvish yoki inert material haydash. Koefitsiyent K-ni 15-ga kamaytirib, pastga tamponaj aralashmasini haydash.
VI	>25	Sirkulyatsiyasiz, oraliq tizmalarini tushirish.

8-masala: Quduqning 1000 metr chuqurligida yutilish sodir bo'ldi, qisman yutilish jadalligi $Q_{yut}=15 \text{ dm}^3/\text{s}$. Quduqni ustidan 30 metr chuqurlikda sath belgilangan bo'lib, burg'ilash quvuri diametri $D_b.x=\emptyset 140 \text{ mm}$, burg'i diametri $D_{bur}=\emptyset 295,3 \text{ mm}$, nasosni haydashi $Q_{nas}=35 \text{ dm}^3/\text{s}$. Yuqoridagi 2-jadvalda yutilish zonalarini tasniflari va bartaraf etish tadbirlari keltirilgan.
Yechish: Qisman yutilishdagi qatlamni yutilish koefitsiyenti imkoniyati quyidagi formuladan aniqlanadi.

$$K = \frac{Q_{iom}}{\sqrt{H_{cm} + h100}}$$

Bu yerda: Q_{yut} – yutilish jadalligi, m^3/soat ($Q_{yut}=15 \text{ dm}^3/\text{s}=54 \text{ m}^3/\text{soat}$);

N_s - statik stahdan quduq tepasigacha bo'lgan masofa, $N_s=30 \text{ m}$.

h - yutilish qatlamidan quduq tepasigacha aralashma harakatlanganda quduq orqa qismidagi gidravlik yo'qolish, MPa.

$$h = 8,26 \lambda_{\text{ioK.KOZphi.}} \frac{LQ^2}{(D_{kyd} - D)^3 (D_{kyd} - D)^2}$$

Bu yerda: $\gamma yuk.\text{koef.}$ – halqa fazasidagi gidravlik qarshilik koefitsiyenti bo'lib, oqim rejimiga bog'liqidir; bu holat uchun $\gamma yuk.\text{koef.} = 0,280$.

L-yutilish zonasini joylashuv chuqurligi. $L=1000 \text{ m}$.

Q -quduqdan qabul sig'imiga qaytib keluvchi aralashma miqdori.

$$Q = Q_h - Q_{tot} = 35 - 15 = 20 \text{ дм}^3/\text{сек.}$$

Q_{qud} - quduq diametri, $D_{qud} = 29,53 \text{ sm}$.

D -burg'ilash quvuri diametri, $D=14,0 \text{ sm}$.

$$\text{Shunday qilib, } h = 8,26 \cdot 0,280 \frac{1000 \cdot 20^2}{(29,5 - 14,0)^3 (29,5 + 14,0)^2} = 0,13 \text{ м.}$$

Unda K-koefitsiyentni qiymatini aniqlaymiz.

$$K = \frac{54}{\sqrt{30 + 13}} = 8,2$$

2-jadvalga muvofiq $K=3-15$ bo'lganda qatlamni yutilishini bartaraf etish uchun qatlamga BSS haydash kerak.

11.6. Qatlam bosimni aniqlash.

9-masala: Burg‘ilash aralashmasini ($\rho_b \cdot a = 1,35 \text{ g/cm}^3$)

12-amaliy mashg‘ulot. Quduq konstruksiyasini tanlash va asoslashga doir misollar.

12.1. Quduqning konstruksiyasini asoslash.

Quduqlarni muvofaqiyatli qazish va tugallash katta qiymatda quduqning konstruksiyasining to‘g‘ri tanlanishi bir-biri bilan mos kelmaydigan zonalarni ajratishni ta‘minlash, amaldagi burg‘ilash aralashmalari bilan har xil rejimlarda burg‘ilashni ta‘minlash bilan bog‘liqdir.

Chuqur quduqlarni burg‘ilashning asosiy masalalaridan biri quduqning tejamkor konstruksiyasni tanlashda unga ta‘sir etuvchi hamma omillarni hisobga olish, asosan 4000-5000 metr chuqurlikdagi quduqlarni burg‘ilashdi. Bir-biriga mos bo‘lgan geologik sharoitda quduqlarni burg‘ilash jarayonidagi tajribalarni chuqur tahlil qilib, ulardan eng muhim omillardan foydalaniladi.

Murakkab geologik sharoitda quduqlarni burg‘ilash amaliyotidan kelib chiqib, quduqlarni burg‘ilash va mustahkamlash bo‘yicha so‘nggi $5\div 7$ yillar davomida olib borilgan ilmiy ishlanmalarga asoslanib, quduqlarni konstruksiyasini takomillashtirishning va chuqurlashtirishning oshirishda bir qator amaliy ishlar bajarilgan va ularga quyidagilar kiradi:

1) burg‘ilarni kichiraytirish va kichik diametrlardan foydalanib, oldingi tizmaning boshmog‘idan chiqish ko‘chaytirildi;

2) mustahkamlash tizmasini seksiyali tushirish usulining qo‘llanilishi va oraliq tizma dumlarning stvolini mustahkamlash;

3) mustahkamlash quvurlarini payvandli biriktiruvchi elementlaridan foydalanish, oraliq va ba’zida ishlatish tizmalarini jamlashda maxsus rezbali muftasiz mustahkamlash quvurlarini qo‘llashni mumkinligi;

4) quduqning va ishlatish tizmasining oxirgi diametrini kichiraytirishni mumkinligi;

5) mahsuldar qatlamning obyektini ochish va burg‘ilashda takomillashtirilgan tugallash texnologiyasini hisobiga quduqning konstruksiyasini yengillashtirish va soddalashtirish imkoniyatini majburiy hisobga olish zarurligi.

12.2. Quduq konstruksiyasini tanlash.

Quduq konstruksiyasini tanlash ekspluatatsiyaga mo‘ljallangan quvurlardan boshlanadi. Parmalash korxonasi geologik xizmati yoki konni ekpluatatsiya qiluvchi tashkilot quduqga tushiriladigan ekspluatatsiyaga mo‘ljallangan quvurlar diametrini ko‘rsatib bergandan so‘ng, boshqa mustahkamlovchi quvurlar va quduq diametrlari aniqlanadi.

Quvurlar tushirilishi kerak bo‘lgan skvajinaning diametri quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$D_o = (1,0447 + 0,00022D)D_m$$

bunda: D_o – doloto diametri, mm;

D – quvur diametri, mm;

D_m – quvur muftasining diametri, mm.

10-jadval

Doloto diametri, mm	139.7	165.1	190.5	215.9	244.5	269.9	295.3	349.2	393.7	490
Quvur diametri, mm	114.3	127	139.7	168.3	193.7	219.1	244.5	273.1	323.9	377

Quduq konstruksiyasi aniqlab bo'lingandan keyin, tanlangan quvurlarning mavjud uslublarga binoan mustahkamliklari, devor qalinligi, po'lat belgisi (markasi) aniqlanadi. Bu uslublar keyingi boblarda berilgan. Mustahkamlovchi quvurlar birikmasini (kolonna obsadnqx trub) skvajina tubigacha to'xtovsiz yetkazib borish uchun dolotolar ustiga o'rnatiladigan og'irlashtirilgan parmalash quvurlarining diametri quyidagi jadvalda ko'rsatilgandek bo'lishi kerak.

11-jadval

Mustahkamlovchi quvurlar diametri, mm	$\Delta\Psi$	Doloto diametri, mm									
		490	393.7	349.2	295.3	269.9	244.5	215.9	190.5	161	
426	0,8	407	-	-	-	-	-	-	-	-	
377	1,0	299	-	-	-	-	-	-	-	-	
351	1,2	254	340	-	-	-	-	-	-	-	
324	1,3	229	299	-	-	-	-	-	-	-	
299	1,6	-	229	299	-	-	-	-	-	-	
273	2,0	-	203	229	254	-	-	-	-	-	
245	2,3	-	-	203	299	299	-	-	-	-	
219	2,8	-	-	-	178	203	203	-	-	-	
194	3,5	-	-	-	-	178	178	178	-	-	
178	4,0	-	-	-	-	146	146	146	-	-	
168	5,0	-	-	-	-	-	146	146	146	-	
140	7,0	-	-	-	-	-	-	133	133	133	

$\Delta\Psi$ – quduqning har 10 m da qiyshayishi, gradus/10 m.

Mustahkamlovchi quvurlar birikmasini skvajinaga muvaffaqiyatli tushirish uchun parmalash davrida ishlatiladigan og'irlashtirilgan parmalash quvurlarninguzunligi quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$\frac{6000}{q} \leq l \geq \frac{D_d - d_{y\delta m}}{060349\Delta\Psi}$$

bunda: q – uzunligi 1 m og'irlashtirilgan quvurning massasi, kg;

D_d – doloto diametri, sm;

$d_{y\delta m}$ – og'irlashtirilgan parmalash quvurining diametri, sm.

Zaboy dvigatellari va doloto diametrлari orasidagi mutanosiblik quyidagi jadvalda berilgan.

12-jadval

Doloto diametri, mm	Zaboy dvigateli diametri, mm	Doloto diametri, mm	Zaboy dvigateli diametri, mm	Doloto diametri, mm	Zaboy dvigateli diametri, mm	Doloto diametri, mm	Zaboy dvigateli diametri, mm
97-114	85	161-172	143	212.7-228.6	195	295-320	265
118-132	105	187.3-190.5	164	243-250.8	215	346-508	315
132.5-158.7	127	196.9-200	172	269.9	240		

12.3. Yuqori debitli gaz quduqlarida ishlatish tizmasining diametrini tanlash.

Adabiyotlarda gaz quduqlarining tejamkor diametrlarini tanlash bo'yicha bir nechta hisoblash usullari taklif qilingan, lekin hozirgi vaqtgacha bu masalani aniq yechish usuli yo'q. Ishlatish tizmasining diametri konlarni ishlatishda minimal kapital qo'yilmalar sarflab qatlamning energiyasidan maksimal foydalanish shartlariga muvofiq aniqlanadi.

Sayger M.A. tomonidan konstruksianing tejamkor konstruksiysi ℓ -ning qiymati quyidagi formuladan foydalanishni taklif qiladi.

$$\ell = K_{kan} \frac{\Delta P^2}{q}$$

bunda: K_{kan} - berilgan diametrda ishlatish quduqning qurilishiga sarflanadigan kapital qo'yilma;

ΔP - qatlamga beriladigan depressiya;

q - quduqning debiti.

YE.M.Nanivskiy konstruksianing tejamkor ko'rsatgichlari deganda, kapital sarflanmaga ketadigan harajatlarni bir kunda 1000 m³ gazni qazib olish uchun qatlam energiyasiga nisbati quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$J = \frac{K_{kan} \cdot (P_{kan} - P_{ky\partial.ycmu})}{q};$$

bunda: Rqat va Rqud.usti – qatlam va quduq ustibosimlari.

Ishlatish tizmasining optimal diametri quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$q_{con} = \frac{Q_\Gamma}{K(P_{kan} - P_{ky\partial.ycmu})}$$

bunda: Q_g - kondan olinadigan gaz hajmi;

K - hamma ishlatish quduqlarini qurish uchun sarflangan kapital qo'yilma;

Rqud.usti - quduqlarning ustidagi o'rtacha bosim.

Ishlatish tizmasining diametri katta bo'lganda qatlam bilan quduqning o'zaro ta'sir etishi va yirik depressiya karnaylarining paydo bo'lishining ehtimolligini hisobga olish kerak. Karnaylarning o'lchamlari katta bo'lganda quduq tubi bosimini pasaytirishda va quduq ishining texnik iqtisodiy ko'rsatgichlarini yomonlashtirish.

13-amaliy mashg'ulot. Mustahkamlash quvurlarini hisoblash. Quduqni sementlash jarayonini hisoblash.

13.1. Mustahkamlovchi quvurlarning hisobi.

Quduq devorini mustahkamlash uchun tushirilgan quvurlar bir vaqtida ichki va tashqi gidrostatik bosim, cho'zuvchi va siquvchi kuchlar ta'siriga uchraydi. Mustahkamlovchi quvurlarni shu kuchlarga chiday olishligini bilish uchun hisob qilinadi.

Mustahkamlovchi quvurlarga ta'sir etayotgan tashqi bosimni aniqlash:

a) quduqning eng yuqorisida

$$(p_H)_y = 0$$

б) қудукнинг остида (башмокда)

$$(p_H)_L = 0,1 [\rho_1 h + \rho_2 (L - h)] \cdot (1 - K)$$

в) цемент қориши маси күтарилиган нуқтада

$$(p_H)_h = 0,1 \rho_1 h$$

bu yerda: ρ_1 va ρ_2 – parmalash qorishmalarini va sement qorishmalarining o'rtacha zichligi, g/sm³;

L – quvurlar yig'indisining uzunligi, m;

h – sement qorishmasi ko'tarilgan nuqtagacha bo'lgan chuqurlik, m;

K – quvur sementlangan zonada tashqi bosim ta'sirining kamayishini ko'rsatuvchi koefitsiyent.

13-жадвал

Quvur diametri, mm	178	194-245	273-324	340-508
K ning qiymati	0.25	0.30	0.35	0.40

g) qatlama bosimi aniqlangan maydonlarda

$$(p_H)_L = p_{nL} \cdot (1 - K)$$

d) qidiruv quduqlari uchun

$$(p_H)_L = 0,1 p_1 \cdot L$$

ye) quduq geologik tizimida plastik oquvchanlik xususiyatiga ega qatlamlar bo'lganda

$$(p_H)_Z = 0,1 p_n \cdot Z$$

1. bunda: – tog' jinslarining o'rtacha zichligi, g/sm³;

2. Z – plastik oquvchanlik xususiyatlari qatlama yotgan chuqurlik, m.

3. Plastik oquvchanlik xususiyatlari yoki og'anashga moyil qatlamlarning qalinligi hisoblanganda 50 m (ustiga 25 m va ostiga 25 m) qo'shib olinadi.

4. Quduqni parmalashda va ishlatalish davrida mustahkamlovchi quvurlar ichida paydo bo'ladigan bosimni aniqash:

a) gaz quduqlariga tushirilgan ekspluatatsiyaga mo'ljallangan quvurlar uchun quduq og'zidagi bosim (ru):

$$P_y = p_{nL} \frac{2 - S}{2 + S}$$

$$S = 10^{-4} \rho_{ro} H$$

bunda: ρ_{ro} - gazning havoga nisbatan zichligi, g/cm³;

p_{nL} – gaz qatlaming bosimi, kg/sm²;

H – qatlama yotgan chuqurlik, m.

b) gaz kondensati neft va suv beruvchi quduqlar og'zida yuz beradigan bosim

$$P_y = p_{nL} - 0,1 \cdot \rho_\phi H$$

bunda: – suyuqlik (flyuid) zichligi, g/sm³;

Oraliq mustahkamlovchi quvurlar uchun ichki bosimni aniqlash:

a) gaz quduqlarini uchun (quduq berk bo'lsa)

$$P_y = p_{nL} \frac{2 - S}{2 + S}$$

b) neft, kondensat va suv quduqlar uchun (quduq berk bo'lsa)

$$P_y = p_{nl} - 0,1 \cdot \rho H$$

Кудук очиқ бўлса, Z чуқурликдаги ички босим:

Quduqdagi parmalash qorishmasiga qatlamdan kelgan suv, neft yoki gaz aralashib qolsa:

$$P_y = p_{nl} - 0,1 \cdot \rho_0 H$$

Кудук очиқ бўлса: $P_y = 0$

$$P_z = 0,1 \cdot \rho_0 H$$

bunda: - yengillashib qolgan qorishma zichligi:

$$\rho_0 = 0,4 \rho_{op}$$

г) gaz quduqlarida oraliq muchtahkamlovchi quvurlar birikmasi ichidagi bosim:

agar quduq berk bo'lsa,

$$(p_B)_p = [\rho_{nl} - 0,1 \rho_{sc} (L - H)] \cdot (1 - K)$$

$$P_y = (p_B)_H \frac{2 - S}{2 + S}; S = 10^{-4} \rho_1 H$$

agar quduq ochiq bo'lsa,

$$P_y = (p_B)_H = 0 \quad (p_B)_Z = 0,1 \rho_{sc} (Z - H)$$

bu yerda: N – quduq ichidagi suyuqlik sathigacha bo'lgan chuqurlik, m;

- N chuqurlikda quvur ichidagi bosim, kg/sm²;

ρ_{sc} - quvur ichidagi suyuqlik zichligi, g/sm³.

4. Mustahkamlovchi quvurni tanlanganda tashqi va ichki bosimlarining farqiga, ya'ni ortiqcha bosimga chidamli quvurlar qabul qilinadi:

$$p_{nu} = p_n - p_e \leq \frac{[p_{cm}]}{m}$$


bu yerda: p_{nu} – N chuqurlikdagi ortiqcha bosim;

$[p_{cm}]$ - quvurni siquvchi bosim chegarasi, quvurlarning xarakteristikasidan olinadi;

m – quvurlarni siquvdan saqlash uchun qabul qilingan ehtiyojlik koeffitsiyenti.

perforatsiya qilinadigan zona (± 50 m) uchun $m=1,0 \div 1,3$, boshqa hollarda $m=1,0$ qabul qilinadi.

Tashqi va ichki bosimlarning farqini aniqlashda bir nuqta (chuqurlik) olinadi. Hisoblangan ortiqcha bosim uchun epyura tuziladi va shu epyurada ko'rsatilgan bosimga mos quvurlar tanlanadi.



11-rasm. Ortiqcha tashqi bosim epyurasi.

13.2. Mustahkamlash tizmasiga a'sir etuvchi bosim.

Quduqni mustahkamlash va sementlash ishlari olib borish uchun umumiylar ma'lumotlar.

Umumiylar ma'lumotlar:

1. Quduq tubi chuqurligi - 2850 m.
2. Tizmani tushirish chuqurligi – 2850 m.
3. Tuz-angidrit yotqiziqlarini oralig'i – $2732 - 2850 = 118$ m.
4. Sementni ko'tarilishi quduq ustigacha –
5. Tamponaj aralashmasini zichligi (ps) –

$$0 - 2700 \text{ m oraliqda} - 1,55 - 1,60 \text{ g/sm}^3.$$

$$2700 - 2850 \text{ m oraliqda} - 1,80 - 1,82 \text{ g/sm}^3.$$
6. 299 mm-li konduktorni tushirish chuqurligi – 1107 m.
7. Qatlam bosimi (Rqat) – 380 kgs/sm².
8. Mahsuldor qatlamni ustigacha bo'lgan chuqurligi (1) = 286 m.
9. Gazni havoga – nisbatan nisbiy zichligi – 0,65.
10. Siquvchi suyuqlikni zichligi (ps) – 1,0 g/sm³.
11. Suyuqlik ustunini gidrostatik bosimi – 1,10 g/sm³.
12. Burg'ilash eritmasi zichligi – 1,26 g/sm³.
13. Mustahkamlash zahira koeffitsiyenti –

ezilish (pachoqlanish)	n1 – 1,0
ichki bosimga	n2 – 1,15
buzuvchi yuklama	n3 – 1,75

Tizmani xisobi.

1. Maksimal ichki bosim (neftgaz paydo bo‘lishidan keyin quduq usti yopilgan)

$z = 0$ bo‘lganda, $\text{Rich},z = \text{Rkat} \cdot \text{yes}$.
 $\text{bu yerda yes} = (2 + S) : (2 - S)$, $S = 10-0,4 \cdot p \cdot \ell$.
 $S = 10-0,4 \cdot 0,65 \cdot 2860 = 0,186$, ye.
 $\text{yes} = (1 + 0,186) : (2 - 0,186) = 1,20$.
 $\text{Rich},z = \text{Rich}, \text{usti} = 380 : 1,20 = 316 \text{ kgs/sm}^2$.

2. Paker o‘rnatmasdan quduqni germetiklikka sinash va quduq ustidagi bosimni aniqlash.

$$\text{Ropr} = \text{Rich},u \times 1,1 = 316 \times 1,1 = 347 \text{ kgs/sm}^2$$

3. Neft va gaz paydo bo‘lishidagi minimal ichki bosim.

$$\text{Rich},z = 0,6 \cdot p \cdot z/\ell$$
$$\text{bu yerda: } z=0, p_{\text{нн},z} = 0,6 \cdot 380 \cdot 2850/2860 = 227 \text{ kgs/sm}^2$$

Boshmoqidan quduq ustigacha bosimni taqsimlanishi to‘g‘ri chiziqlidir.

4 Tashqi ortiqcha bosim.

Sementlashni tugallashdagi bosim.

$$\text{Rtash.or, } z = 0,1 \cdot (\rho_{\text{н}} - \rho_{\text{вр}}) \cdot z$$

Tamponaj aralashmasini o‘rtacha zichligini aniqlaymiz.
 $\text{Ps} = (1,60 \cdot 2700 + 1,80 \cdot 150) / 2850 = 1,61 \text{ g/sm}^3$ bunda $z = 0$; $\text{Rtash.or, } z = 0$.

$z = L = 2950$ metrga teng bo‘lgandagi tashqi ortiqcha bosimni aniqlaymiz.

$$\text{Rtash.or, } z = 0,1 \cdot (1,61 - 1,26) \cdot 2850 = 100 \text{ kgs/sm}^2$$

Sement aralashmasi qotgandan keyin neftgaz paydo bo‘lishida tashqi ortiqcha bosimni aniqlaymiz.

$$\text{Rtash.or, } z = \text{Rtash}, z - \text{Rich}, z$$

$$\text{bu yerda: } \text{Rtash}, z = 0,1 \cdot \rho_{\text{s}}, u \cdot z$$

Bunda $z = 0$ bo‘lganda $\text{Rtash}, z = 0$ teng.
 $z = 2707 \text{ m}$ (tuzli – angidrit qatlamidan 25 metr yuqorida)

$$\text{Rtash.or, } z = 0,1 \cdot 1,10 \cdot 2707 - 0,6 \cdot 380 \cdot 2707 / 2860 = 82 \text{ kgs/sm}^2$$

Bunda $z = 2707 \text{ m}$ bo‘lganda (tuzli – angidrit qatlamidan 25 metr yuqorida joylashganda) tog‘ bosimi hisobga olinganda.

$$\text{Rtash.or, } z = 0,1 \cdot 2,30 \cdot 2707 - 0,6 \cdot 380 \cdot 2707 / 2860 = 406 \text{ kgs/sm}^2$$

$Z = 2850$ metr chuqurlikda tog‘ bosimi hisobga olinganda.

Rtash.or, $z = 0,1 \cdot 2,30 \cdot 2850 - 0,6 \cdot 380 \cdot 2850 / 2860 = 428 \text{ kgs/sm}^2$.

Bu ma'lumotlarni neftgaz bo'lish holatini hisobi uchun qabul qilamiz va ortiqcha bosimni AVSD epyurasini ko'ramiz.

5. Ichki ortiqcha bosim (tizmani germetiklikka sinashda maksimal ichki bosim paydo bo'ladi).

Rich.or, $z = \text{Ropres} + 0,1 \cdot \rho_s \cdot z - \text{Rtash.z}$.

Bunda $Z = 0$ bo'lganda Rich.or, $z = \text{Ropres} - 347 \text{ kgs/sm}^2$.

Bunda $Z = 2850$ metrga teng bo'lganda

Rich.or, $z = 347 + 0,1 \cdot 1,0 \cdot 2850 - 0,1 \cdot 1,10 \cdot 2850 = 318 \text{ kgs/sm}^2$.

Tizmani germetiklikka sinashdagi EF ichki ortiqcha bosimni epyurasini ko'ramiz.

Quduq usti yopiq bo'lganda $Z = L = 2850$ metr chuqurlikda neftgaz paydo bo'lishidan ortiqcha ichki bosimni grafigini ko'ramiz.

Rich.or, $z = 380 - 0,1 \cdot 1,10 \cdot 2850 = 66 \text{ kgs/sm}^2$.

Zahira koeffitsiyenti $K_3 = 1,10$ bo'lganda, quduqqa bosimli bostirilganda $66 \times 1,1 = 72 \text{ kgs/sm}^2$. Quduq usti Rich.or, $z = 347 \text{ kgs/sm}^2$. teng. KN – neftgaz paydo bo'lishidagi ichki ortiqcha bosimni epyurasini ko'ramiz.

6. Tizmani jamlamasini tuzish.

1-seksiya: quvur diametri, 219 markasi R 110, devorini qalinligi 12,7 mm.

oraliq $2850 \div 2700 \text{ m}$.

seksiya uzunligi 150 m.

1p.m 65 kg.

umumiy seksiyani og'irligi $150 \times 65 = 9,75 \text{ tn}$.

pachoqlanish bosimi Rpach = 57,9 MPa.

ichki bosim Rich = 76,9 MPa.

buzish bosimi Rbuz = 6247 kN.

2-seksiya: quvur diametri 219 mm, markasi D, devorini qalinligi 11,4 mm.

oraliq 2700-2100 m.

seksiya uzunligi 600 m.

1 p.m og'irligi = 59,5 kg.

seksiyani og'irligi $600 \times 59,5 = 35,7 \text{ tn}$.

pachoqlanish bosimi Rpach = 26,1 MPa.

ichki bosim Rich = 34,5 MPa.

buzish bosimi Rbuz = 2250 kN.

3-seksiya: quvur diametri 219 mm, markasi YE, devorini qalinligi 10,2 mm.

oraliq 2100-400 m.

seksiya uzunligi 1700 m.

1 p.m og'irligi = 53,6 kg.

seksiyani og'irligi $1700 \times 53,6 = 91,12 \text{ tn}$.

pachoqlanish bosimi Rpach = 26,0 MPa.

ichki bosim Rich = 44,9 MPa.

buzish bosimi $R_{bz} = 2314 \text{ kN}$.

4-seksiya: quvur diametri 219 mm, markasi L, devorini qalinligi 11,4 mm. oraliq 400-0 m.

seksiya uzunligi 400 m.

1 p.m og'irligi = 59,5 kg.

seksiyani og'irligi $400 \times 59,5 = 23,8 \text{ tn}$.

pachoqlanish bosimi $R_{pach} = 36,3 \text{ MPa}$.

ichki bosim Rich = 59,6 MPa.

buzish bosimi $R_{bz} = 2893 \text{ kN}$.

14-amaliy mashg'ulot. Mahsuldor qatlamni ochish, quduq tubi konstruksiyasi.

14.1. Asosiy terminlar va aniklagichlar.


Gorizontal quduqlar deb loyihada stvolni tiklikdan og'ishi oldindan ko'rsatilgan – zenit burchagi 800 dan katta quduq stvoliga aytildi. Qiya yo'naltirilgan va qiya quduq deb, quduq tubini tiklikdan berilgan yo'nalish bo'yicha og'ishiga, hamda quduq usti orqali o'tishiga.

Gorizontal quduqlar umumiy stvol uzunligi (L) bilan tavsiflanib, tiklik bo'yicha chuqurligi (N), tiklikdan quduq tubini og'ishi mahsuldor yo'nalishgacha kattalik va yo'nalishga (azimut burchak φ) ekanligi, mahsuldor qatlamdagi (A) quduq stvoli gorizontal uchastkasini o'qi uzunligi va konfiguratsiyasiga ega bo'ladi.

Quduqni fazoli holatini chuqurligi uchta og'uvchi parametrlar bilan aniqlanadi: Chuqurlik L, zenit burchak α , azumutal burchak φ yoki koordinatalar Z=H, X=Y.

Quduqni stvoli bo'yicha uzunligi (L) – quduq ustidagi koordinata nuqtasi 0 nuqtadan quduq tubidagi S nuqtagacha quduq o'qi yoki har qanday ixtiyoriy o'changan burchaklardagi masofa uzunligiga teng (1-rasm, OVS1).

Gorizontal quduqni o'qi (1-rasm, 2-egri chiziq) umumiy ko'rinishda fazoviy egrilikni tavsiflaydi. Quduq o'qini har bir nuqtasi kesishuvchi koordinatani ustiga nisbatan, zenit, azumutal burchaklarni va egrilanish jadalligini aniqlaydi, tiklik bo'yicha quduqni chuqurligi N – OA dan quduq usti O – nuqtagacha bo'lgan quduq tubi orqali o'tgan gorizontal tekislikgacha bo'lgan masofadir.



12-rasm. Quduqni fazoviy holatini aniqlovchi elementlar.

1-gorizontal tekislik; 2-quduqni o‘qi; 3-quduqni rejasi – quduq o‘qini gorizontal tekislikdagi proyeksiyasi, quduq usti orqali o‘tib quduq stvolini umumiy gorizontal og‘ishi; 4-tiklik; 5-boshlang‘ich hisobot yo‘nalishi; 6-quduqni qazish yo‘nalishi; 7-tik tekislik.

Zenit burchak α – kuriladigan nuqta orqali o‘tgan bo‘lib, stvol o‘qi va tiklik o‘rinmasi orasida joylashgan.

Quduq azimuti φ – apsidal va meridional tekisliklar oralig‘idagi burchakdir. Azimut burchak gorizontal tekislikni shimolga tomon yo‘nalishi bo‘yicha quduqni o‘qiga o‘rinmani gorizontal proyeksiyasi yo‘nalishida soat strelkasi yurishi bo‘yicha hisoblanadi.

Quduqni profili (OVS) – quduq o‘qini vertikal tekislikdagi 7 proyeksiyadir va quduq usti va tubi orqali o‘tadi. Quduqni rejasi (OS) – quduq o‘zini 1-chi gorizontal tekislikdagi proyeksiyadir. Quduq tubini tiklikdan og‘ishi (AVS) – quduq usti orqali o‘tuvchi quduq tubidagi tiklikgacha bo‘lgan masofadir.

Quduq o‘qini konfiguratsiyasi har qanday nuqtadagi egrilanish radiusini jadalligini tavsiflaydi. Quduqni o‘qida juda kichik masofada yuqorida va pastda joylashgan ikkita nuqtani olamiz. Ko‘rsatilgan nuqtalar oralig‘idagi o‘qni kesmchasini aylana yoyi sifatida qabul qilib, radiusi shartli nuqtani egrilik radiusi hisoblanadi. Aylanada yotgan tekislikka – egrilanish tekisligi deb ataladi. Bir-biridan $\Delta\ell$ masofada joylashgan ikkita nuqta oralig‘idagi quduq o‘qini kesmchasini quyidagi parametrlar bilan tavsiflanadi.

$$\text{O‘rtacha zenit burchak. } \alpha_{yp} = \frac{\alpha_1 + \alpha_2}{2}, \text{ grad.}$$

Zenit egrilanish – ichki nuqta oralig‘idagi zenit burchakni farqi. $\Delta\alpha = \alpha_2 - \alpha_1$, grad.

Stvolning gorizontal proyeksiyasi $\Delta a = \Delta\ell \cdot \sin \alpha \cdot r$, m;

Stvolni vertikal proyeksiyasi $\Delta h = \Delta\ell \cdot \cos \alpha \cdot r$, m;

Azimutal egrilanish – ikki nuqta oralig‘idagi uchastkada azimut burchakni o‘zgarishi

